

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“TRANSPORT VA LOGISTIKA” fakulteti

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI”kafedrasи

“Diplom loyihasi himoyaga qo`yilsin”

“Texnologik mashinalar va jihozlar”
kafedrasi mudiri _____

dots.N.Qobulova

«_____» 2019-y.

**“Mexnat sharoyitining inson organizimiga ta’siri va uni
yahshilash yo’llari”**

5860100 “Hayot faoliyati xavfsizligi” ta’lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun diplom loyihasi

147-15 guruhi talabasi

A.Nematov

Rahbar, t.f.n, dots.

N.Qobulova

Andijon - 2019

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“TRANSPORT VA LOGISTIKA”fakulteti

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI”kafedrasи

5860100 “Hayot faoliyati xavfsizligi” ta'lif yo'nalishi 147-15guruhi

“Tasdiqlayman”

“Texnologik mashinalar va jihozlar”

kafedrasи mudiri _____

dots. N.Qobulova

“_____” _____ 2019-y.

Diplom loyihasi bo'yicha topshiriq

Talaba: Ne'matov Akmaljon Axmadillo o'g'li

f.i.sh.

1. Diplom loyihasining mavzusi

“Ishlab chiqarishda yoritish va uning meyorlari tahlili ”

201____-yil “_____” _____ kafedra majlisida ma'qullangan.

2. Diplom loyihasini topshirish muddati 06.2019

3. Diplom loyihasini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar

1) uslubiy ko`rsatmalar;

2) umumiylar;

3) adabiyotlar;

4) internet ma`lumotlari.

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro`yxati)

- 1) kirish;
- 2) umumiylumotlar;
- 3) asosiy qism;
- 4) iqtisodiy qism.

5. Grafik ishlari ro`yxati (chizmalar nomi aniq ko`rsatiladi) _____

Diplom loyihasi bo`yicha maslahatchi(lar)

№	Bo`lim mavzusi	Maslahatchi o`qituvchi f.i.sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1.	Kirish	N.Qobulova		
2	Umumiylumotlar	N.Qobulova		
3	Asosiy qism	N.Qobulova		
4	Iqtisodiy qism	Z.To`ychiyeva		

6. Diplom loyihasini bajarish rejasi

№	Diplom loyihasini bosqichlarini nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o`tganlik belgisi
1	Kirish		
2	Umumiylumotlar;		
3	Asosiy qism		
4	Iqtisodiy qism		

Nº	Diplom loyihasini bosqichlarini nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o`tganlik belgisi

Topshiriq berilgan sana _____ - yil “_____”

(sana)

(imzo)

Diplom loyihasi rahbari _____ (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____ (imzo)

MUNDARIJA

Kirish	2-9
I. Ishlab chiqarishda inson salomatligiga ta'sir qiluvch omillar	10-21
1.1. Ishlab chiqarishda mehnat sharoyitlari	10-14
1.2. Ishlab chiqarishda xavfli va zararli omillarning ishchilarga ta'siri va ularni oldini olish	14-22
II. "UZ DONG CO" korxonasining ish faoliyati	23-46
2.1. Korxonaning umumiy tavsifi	23-28
2.2. Korxonada mehnatni muhofaza qilish sohasidagi ishlarni tashkilashtirish	28-44
2.3. «UZ DONYAN CO» Korxonaning xavfsizlik sohasidagi maqsad va vazifalari	44-46
III. Ishlab chiqarishda mikroiqlim ko'rsatkichlari	47-53
IV. Iqtisodiy qismi	54-61
V. Xulosa	62
VI. Foydalanilgan adabiyotlar	63

KIRISH

Hurmatli Prezidentimiz 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasini bayon etishga ruxsat bergaysiz.Bugun biz shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bormoqda.Biz kelgusi yil uchun amaliy rejalar tuzar ekanmiz, xalqaro maydondagi ana shunday murakkab vaziyatni hisobga olgan holda, taraqqiyotimizning ustuvor yo‘nalishlarini aniq-ravshan belgilab olishimiz zarur.

Biz har bir yilga ezgu niyat bilan nom beramiz va o‘z oldimizga ulkan marralarni qo‘yamiz.Biz 2018 yilga «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili» deb nom berib, Davlat dasturi doirasida 21 trillion so‘m va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshiranimiz o‘tgan yili yaxshi niyat bilan boshlagan ishlarimizning natijasini ko‘rsatib turibdi.Sanoat, qishloq xo‘jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko‘rsatish sohalarida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Xalqaro munosabatlarda ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat olib borilayotgani tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro‘sii tobora ortib bormoqda.Barcha qo‘shnilarimiz bilan do‘stona va o‘zaro ishonch ruhidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash bizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi.

2018 yilda 18ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80ta loyiha bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalar hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456ta loyiha amalga oshirilmoqda. Fursatdan foydalanib, islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelayotgan, barcha qiyinchilik va sinovlarni mardona yengib, o‘zining fidokorona mehnati bilan jonajon Vatanimiz ravnaqiga ulkan hissa qo‘shayotgan oljanob xalqimizga chin qalbimdan minnatdorlik

bildiraman.Yana sanoqli kunlardan keyin yurtimizga yangi – 2019 yil kirib keladi. Yangi yil arafasida an'anamizga ko'ra 2019 yilga qanday nom berish to'g'risida bugun sizlar bilan maslahatlashib, bir qarorga kelsak, ayni muddao bo'ladi. Albatta, biz bu haqda ko'p o'yladik. Joylarda xalq bilan muloqotlar davomida va murojaatlarda bildirilgan fikrlar, taklif-mulohazalarni atroflicha ko'rib chiqdik.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: investitsiya deymiz, islohotlar deymiz, modernizatsiya, deymiz. Lekin bu o'zgarishlardan ko'zlangan asosiy maqsad nima o'zi? Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir.Bu yo'nalishda oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq.Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliv o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak.Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz.Nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.Kelgusi yilda tadbirkorlik, biznes uchun yanada qulay muhit yaratish, yangi ish o'rirlari tashkil etish, aholi daromadlarini ko'paytirish, pensiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha ham ko'p ishlar qilishimiz lozim. Shularning barchasini hisobga olib, 2018 yilda boshlagan ishlarimizni mantiqiy davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida, men kirib kelayotgan yangi – 2019 yilga "Faol investitsiyalar va

ijtimoiy rivojlanish yili” deb nom berishni taklif etaman.Yilga bunday nom berganimiz barchamizga juda katta vazifalar va mas’uliyat yuklaydi. Investitsiyalarni qanday qilib ko‘paytiramiz, ijtimoiy muammolarni qanday hal qilamiz, degan savollar oldimizda ko‘ndalang bo‘lib turibdi. “Oynai jahon” orqali bizni kuzatib turgan xalqimiz ana shu savollarga bizdan javob kutishga to‘la haqli. Bu vazifalarni hal qilishga bugundan boshlab kirishmasak, bor kuch va imkoniyatlarimizni shu yo‘lda safarbar etmasak, ko‘zlagan maqsadga, marraga erishish qiyin bo‘ladi. Har bir rahbar – u vazir yoki markaziy idora boshlig‘i bo‘ladimi, deputat yoki senator bo‘ladimi, kompaniya yoki xo‘jalik birlashmasi raisi, viloyat yoki tuman hokimi bo‘ladimi – barcha-barchamiz bu ishni eng birinchi vazifamiz, deb bilishimiz zarur. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz.Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda .Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim:

- ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumдорligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
- “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;
- valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.Birinchidan, biz makroiqtisodiy barqarorlikni va yuqori iqtisodiy o‘sish

sur'atlarini ta'minlashimiz shart. Avvalo, inflyatsiyani jilovlamasdan turib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin emas. Jalon tajribasini puxta o'rganib, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, monetar siyosatni takomillashtirish va narxnavo barqarorligini ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqishimiz zarur. O'tish davrida iqtisodiyot sohasida statistik hisobotlarni to'g'ri yuritish va davlatning iqtisodiy salohiyatini aniq baholash juda muhimdir. Shu orqali yalpi ichki mahsulotni xolisona baholashga erishish mumkin. Vazirlar Mahkamasiga ushbu masalalar yuzasidan ikki oy muddatda Hukumat dasturlari va "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish topshiriladi. Sakkizinchidan, iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifadir. Kelgusi yili eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo'ymoqdamiz. Biz eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarur. Shuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Shu bois, "Uzbekistan eyrveys" va "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarur. Vazirlar Mahkamasi eksport yuklarini qo'shni davlatlardan temir yo'l orqali imtiyozli narxlarda o'tkazish bo'yicha muzokaralar olib borishi kerak. Shu bilan birga, Jalon bankining "Logistika samaradorligi indeksi"dagi mamlakatimiz o'rnini yuqori pozitsiyaga ko'tarish choralarini ko'rish lozim.

Kelgusi yilda bojxona tartiblarini keskin soddalashtirish, bojxona nazorati punktlari hamda yuklarni rasmiylashtirish postlarini tubdan isloh qilish zarur. Yurtimizning barcha hududlarida zamonaviy talablarga javob beradigan, "yagona darcha" tamoyili asosida faoliyat ko'rsatadigan bojxona komplekslarini barpo etish kerak. Barchamizga ayonki, islohot – bu yangilanish, o'zgarish degani. Islohotlar ijobjiy natija berishi uchun, avvalo rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi. Bu maqsadga erishish uchun birinchi navbatda, barcha darajadagi rahbarlar va xalq deputatlari, barcha yetakchilar o'z faoliyatini tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik asosida tashkil etishlarini

bugun hayotning o‘zi talab etmoqda.Zamonaviy, oqilona boshqaruv tizimini joriy etish – oldimizga qo‘yan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir.Bu borada quyidagi dolzarb masalalarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.Birinchidan, parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish lozim.Hozirgi kunda Konstitutsiyaga muvofiq, parlament Bosh vazirni tasdiqlaydi. Lekin vazirlarni lavozimga qo‘yishda qatnashmaydi.Shuning uchun Hukumat a’zolari parlament oldida mas’uliyatni yetarli darajada his etayotgani yo‘q. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi a’zolarini Oliy Majlis tomonidan tasdiqlash amaliyotini kiritishni taklif etaman.Bo‘lajak vazir parlament a’zolari oldida sohani rivojlantirish bo‘yicha o‘z dasturini himoya qilsin va unga erishish yo‘llarini asoslab bersin. Bir so‘z bilan aytganda, lavozimga munosib ekanini isbotlasin.Ayni vaqtida joylardagi mahalliy kengashlarda ham viloyat va tuman idoralari rahbarlarini tasdiqlash bo‘yicha mana shunday amaliyotni joriy etish kerak.Parlament nazoratining ta’sirchan shakllaridan biri bo‘lgan Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini ko‘rib chiqishga alohida ahamiyat berishimiz zarur. Bu ishni yuqori professional darajada yo‘lga qo‘yish uchun Oliy Majlis qoshida Davlat budgeti boshqarmasini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Ikkinchidan, ijro hokimiyyati tizimini optimallashtirish, ma’muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo‘llash zarur.Barcha davlatlarda Hukumat islohotlar ijrosi uchun javob beradigan yuqori vakolatli organ hisoblanadi.Hozirgi kunda Hukumat komplekslari tarkibiga 160 dan ortiq idora va tashkilotlar kiradi, Bosh vazirning soha va tarmoqlar bo‘yicha 8 nafar o‘rnbosari mavjud. Lekin Vazirlar Mahkamasi va uning tarkibidagi idoralarning islohotlar jarayonidagi o‘rni bugungi kun talabiga javob beradimi? Bu savolga, afsuski, ijobiy javob berolmaymiz.Vazirlar va kompaniya rahbarlari arzimagan masala bo‘yicha ham Vazirlar Mahkamasiga qatnashga o‘rganib qolgan. Oqibatda, Hukumat faqat kundalik joriy masalalarni hal qiladigan tuzilmaga aylanib bormoqda. Iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi muammolarni chuqr tahlil qilish va joylardagi haqiqiy ahvolni o‘rganish esa e’tibordan chetda qolmoqda.2019 yilga “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nom berganimiz munosabati

bilan Tashqi ishlar vazirligi va uning chet eldag'i vakolatxonalari ham o'z ishini qayta ko'rib chiqishlari lozim bo'ladi.Bundan buyon bizning xorijdagi elchilarimizga ham talab o'zgaradi. Ularning faoliyatiga birinchi navbatda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qanday ishlayotganiga hamda ana shu investitsiya miqdoriga qarab baho beriladi.Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasiga uch oy muddatda yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, Hukumat va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralar faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish, ish samaradorligini oshirish, rahbar kadrlarning shaxsiy javobgarligi va mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash vazifasi yuklatiladi.Prezident qabulxonalarining ikki yillik ish tajribasi shuni ko'rsatdiki, biz yaqin o'tmishda xalqdan, uning tashvish va muammolaridan ancha uzoqlashib qolgan ekanmiz. Biz fuqarolar bildirgan fikr-mulohaza va takliflarni inobatga olib, davlat boshqaruv tizimini isloh qilishimiz, ilg'or davlat menejmenti va "aqlii" boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o'tishimiz lozim.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida har bir yil ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish, yurtimizni ravnaq toptirish bo'yicha yangi-yangi yutuqlar, bilim va tajribalar davri bo'lib qolmoqda.Biz yangi yildan boshlab siyosiy hayotimizda yana bir amaliyotni joriy etamiz. Kirib kelayotgan yilning bosh hujjati bo'lgan Murojaatnomada bayon qilingan har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha Bosh vazir va hukumat a'zolari amalga oshirilgan ishlar haqida Senat va Qonunchilik palatasi oldida har chorakda hisobot berib boradi. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishi lozim.Shu tariqa fuqarolar Murojaatnomada belgilab berilgan vazifalarni bajarish bo'yicha, hukumat qanday ish olib borayotganidan xabardor bo'ladi.Ya'ni, hukumat faoliyatiga xalqning o'zi baho beradi.Hammamiz bir haqiqatni yaxshi tushunamiz, 2019 yil uchun belgilab olgan reja va dasturlarimizni amalga oshirish, albatta oson bo'lmaydi. Hali faqat qog'ozda bo'lgan bu reja va dasturlarni amaliy ishlarga, real natijaga aylantirish uchun barchamiz bиргаликда qattiq mehnat qilishimiz kerak.Bu yo'lda bizga ishonch va ilhom, g'ayrat va shijoat beradigan beqiyos bir kuch-qudrat borki, biz unga tayanib, o'z maqsadlarimizga albatta yetamiz.Bu – hayot sinovlarida toblangan, so'zida qat'iy

turadigan, ishning ko‘zini biladigan, mehnatkash, mard va matonatli xalqimizdir. Biz bugun ko‘pmillatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi.

Biz demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat oldinga – yangi, yuksak marralar sari boramiz. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘sish – Yaratganning o‘zi bizga bergan tarixiy imkoniyat, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Barchamiz buni chuqur anglashimiz, qadriga yetishimiz zarur. Jonajon Vatanimiz oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajarish hammamizga nasib etsin! Fursatdan foydalanib, sizlarni, butun xalqimizni yaqinlashib kelayotgan yangi – 2019 yil bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, ishlaringizda omad va muvaffaqiyatlar tilayman. Yezgu orzu-niyatlarimizni, rejalarimizni amalga oshirishda Yaratganning o‘zi barchamizga madadkor bo‘lsin.

2019 yilga “**Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili**”, deb nom beranimiz munosabati bilan Tashqi ishlar vazirligi va uning chet eldag‘i vakolatxonalari ham o‘z ishini qayta ko‘rib chiqishlari lozim bo‘ladi. Bundan buyon bizning xorijdagi elchilarimizga ham talab o‘zgaradi. Ularning faoliyatiga birinchi navbatda investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qanday ishlayotganiga hamda ana shu investitsiya miqdoriga qarab baho beriladi.

Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasiga uch oy muddatda yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, Hukumat va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralar faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish, ish samaradorligini oshirish, rahbar kadrlarning shaxsiy javobgarligi va mas’uliyatini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash vazifasi yuklatiladi.

Prezident qabulxonalarining ikki yillik ish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, biz yaqin o‘tmishda xalqdan, uning tashvish va muammolaridan ancha uzoqlashib

qolgan ekanmiz.Biz fuqarolar bildirgan fikr-mulohaza va takliflarni inobatga olib, davlat boshqaruv tizimini isloh qilishimiz, ilg‘or davlat menejmenti va “aqlli” boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o‘tishimiz lozim.Bu shuni bildiradiki, endi davlat muassasalari bevosita fuqaro bilan ishlashga o‘tadi.Davlat idoralari xalqqa, jumladan, tadbirkorlarga yaqin ko‘makchi bo‘lishi zarur.Davlatning boshqaruv sohasidagi ba’zi funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida, jumladan, “autsorsing” shaklida xususiy sektorga topshirish lozim.Bugun oddiy bir haqiqatni tan olishimiz kerak.

Davlat idoralarida malakali va yetuk kadrlar yetishmayapti.Hanuzgacha davlat xizmatchilarining maqomi belgilanmagan, davlat xizmatiga qabul qilishning oshkora mexanizmlari ishlab chiqilmagan.Bu boradagi muammolarni hal etish uchun, avvalo, davlat xizmatchilari faoliyatini xolisona baholash bo‘yicha samarali tizim joriy etish zarur. E’tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman.Davlat organlarida ertaga, istiqbolda qanday vazifalar dolzarb bo‘lishi, sodda qilib aytganda, besh, o‘n, yigirma yildan keyin qanday muammolar oldimizda ko‘ndalang bo‘lishini prognoz qiladigan tizim hali shakllangani yo‘q.Bunda davlat boshqaruvi idoralarida strategik tahlil va prognozlashtirish tuzilmalarini tashkil etish lozim.Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida alohida Ekspert kengashi tashkil etilib, unga xorijiy mamlakatlarning nufuzli olimlari va amaliyotchilari jalb qilinishi lozim.Hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda aksariyat hokimlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik yetishmayapti.

I. ISHLAB CHIQARISHDA INSON SALOMATLIGIGA TA’SIR

QILUVCH OMILLAR

1.1. Ishlab chiqarishda mehnat sharoyitlari

Mehnat sharoitlari mehnat qilish jarayonini ya’ni bajarilayotgan ishlarning jadalligini ish davomida kishi gavdasining holati, asablarning psixologik zo’riqish darajasi, organizmdagi ba’zi organlar zo’riqishini belgilovchi kishi harakatining harakteri va atrof-muhitning ahvoliga qarab aniqlanadi.

Mehnat sharoitlarini asosan to’rt gurux omillarga ajratish mumkin.

Birinchi guruh omillari – atrof muxitning sanitariya-gigiena xolati. Bularga xavo xarorati, atrof muxitning tozaligi, yorug’lik, tovush va boshqalar kiradi. Masalan, ko’pincha baxtsiz xodisalar (32 % ni) qish oyida, ozrog’i esa (18,9% ni) yoz vaqtida sodir bo’lishi kuzatilgan. Bu esa-qish oylaridagi yorug’ kunning qisqaligi, xaroratning pasayishi, muzlash kabi meteorologik omillarning (faktorlar) bevosita ta’sir etishidan dalolat beradi.

Ikkinchi guruh omillar – mexnat vositalari: ishlab chiqarish uchun foydalilaniladigan mashina-mexnizmlar, asbob va moslamalar. Eng zamonaviy mexnat vositalari ro’y beradigan shikastlanishlar sonini kamaytiradi, shuningdek ishlovchilarga normal gigienik sharoitlar yaratib, jismoniy va psixologik zo’riqishlarni kamaytiradi.

Uchinchi guruh omillarga tashkiliy formalar kiradi. Ular ish rejimi va dam olishga xamda mexnat taqsimotiga asoslanadi. Masalan, shikastlanish darajasi kam sodir bo’lgan xollar oyning boshida, ko’prog’i esa oyning oxiriga to’g’ri kelganligi kuzatilgan. Bu shuni bildiradiki ishlab chiqarish korxonalarida yoki boshqarmalarda ishlar bir xilda olib borilmasdan, oy oxirida kelganda reja ketidan quvish oqibatida mexnat intizomini buzilishi ro’y beradi va baxtsiz xodisalar sodir bo’ladi.

To’rtinchi guruh omillari – odamlarning o’zaro munosabatlari, ish sharoitlari va mexnat natijasiga bo’lgan munosabatiga bog’lik ijtimoiy omillarni o’z ichiga oladi. Odamlar o’rtasidagi o’zaro muomala madaniyati, bir kishining 2-siga yaxshi

munosabatda bo'lishi, xamda qulay mexnat sharoitlari yaratib berish ishchilarga xush kayfiyat bag'ishlashi bilan birga ularning ish qobiliyatlarini xam oshiradi.

Mehnatni to'g'ri tashkil etish kishi organizmiga ijobiy ta'sir etib, unda yengillik va kuch quvvatni oshiradi. Inson fiziologiyasini o'rghanish esa normal ish rejimini tashkil qilishga, mehnat qobiliyatini oshirishga va turli ishlarni bajarayotganda ishchi qanday holatda bo'lishi zarurligini aniqlashga yordam beradi.

Ma'lumki inson uchun ko'rish, eshitish nafas olish, sezish va asab sistemalari muhim a'zolar hisoblanadi. Inson 20 dan 20000 Gts chastotali tebranishgacha bo'lgan tovush to'lqinlarini eshita oladi. Qulinqing sezish qobiliyati ancha yuqori bo'lib, 2000 Gts. dan 4000 Gts. gacha diapozondagi tovushlarni normal eshitadi, biroq 800 Gts. dan past va 6000 Gts. dan yuqoriroq chastotada sezish qobiliyati birmuncha pasayadi.

Odam nafas olganda o'pkaga kirayotgan havo tarkibida kislorod 21%, chiqarayotganda 16% ni tashkil kiladi. Havo tarkibidagi zararli moddalar (gazlar, bug'lar, chang va b.) inson uchun juda zararli bo'lib, har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Sof toza havo tarkibida 77% azot, 21% kislorod, 1% is gazi va boshqa aktiv gazlar, 1% inert gazlar (argon, neon va b) mavjud. Havo tarkibi qanchalik kislorodning manfiy ionlari bilan to'yingan bo'lsa, inson organizmini kislorod bilan ta'minlanish darajasi shunchalik yaxshilanadi. Lekin, ishlab chiqarish sharoitida tabiiy sof toza havo deyarli uchramaydi. CHunki ko'pgina texnologik jarayonlar har xil zararli moddalarni ajralib chiqishi bilan kechadi. Ish joyi xonasining havosi tarkibidagi ushbu zararli moddalarni me'yorlashtirish ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, yangi zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, germetiklashtirish orqali amalga oshiriladi.

Mehnat qilish jarayonida kishi organizmiga salbiy ta'sir etadigan ishlab chiqarishning nomaqbul omillari natijasida yuzaga keladigan inson sog'ligidagi o'zgarishlar kasb kasalligi deb ataladi. Ishlab chiqarishda kasb kasalliklari ish joylaridagi havoning changlanishi, gaz, shovqin va tebranishlar ta'siridan hamda

havo harorati, bosimi, namligini o'zgarib turishi natijasida paydo bo'ladi. Ishlab chiqarishdagi nomaqbul omillarning kishi organizmiga uzoq muddat ta'sir etishi oqibatida ishchi kasb kasalligiga chalinishi, natijada ish qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo'qotishi mumkin.

Ishchilarning doimo sog'lom yurishlari va mehnat qobiliyatlarini yo'qotmasliklarida shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish katta ro'l o'ynaydi. Tana va qo'lni toza bo'lishi, ovqatlanishdan oldin qo'lni doimo sovunlab yuvish, o'zini va kiyimlarini ozoda tutish, vaqtida ovqatlanish va ish bilan dam olishni to'g'ri tashkil qilish – shaxsiy gigienaning asosiy talablari hisoblanadi.

2.Inson mehnat faoliyatining turlari, fiziologik ta'siri.

Har bir insonning va butun jamiyatning mehnat faoliyati quyidagi ikki asosiy turga bo'linadi: jismoniy va aqliy. Har qanday faoliyat ma'lum bir ijtimoiy, ruhiy jarayonni nazarda tutadi.Hammaga ma'lumki, inson faoliyati natijasida har doim biror moddiy narsaga erishiladi. Zero moddiy narsa natijasida faoliyatning doirasi doimiy kengayib, murakkabligi ortib boradi. Insonni bir vaqtida faoliyati bilan ehtiyoji ham rivojlanib boradi.

Inson faoliyati - bu har doim hayot uni oldiga qo'yilayotgan muammolarni hal etilishidir. U bu muammolarni aqliy va jismoniy faoliyati natijasida yechadi. Umuman olganda inson faoliyatini aqliy va jismoniy faoliyatlarga bo'lish ko'p jihatdan shartli hisoblanadi. Aqliy faoliyat markaziy asab sistemasiga sezilarli darajada yuklanish beradi va mehnatni kuchlanganligi sifatida harakterlanadi. Jismoniy faoliyat insonni mushaklariga, skelet mushaklariga, yurak-qon tomir sistemalariga va boshqa fiziologik sistemalariga yuklanish beradi.

Zamonaviy hayot ishlab chiqarishda jismoniy faoliyatga nisbatan aqliy faoliyat ulushini oshib borishini harakterlaydi. Bunday holatlar aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi odamlarda yog' bosish, qon tomir kasalliklari, umurtqa, oshqozon-ichak va boshqa kasalliklarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Zamonaviy ishlab chiqarishda kasblar to'rt guruhga bo'linadi: jismoniy, mexanizatsiyalashgan, avtomatlashgan va aqliy mehnat. O'z navbatida oxirgi ikkitasini ulushi doimiy o'sayotgan bo'lsa, birinchi ikkitasiniki esa doimiy

kamaymoqda. Mos ravishda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasi kengaymoqda. Ammo insonni yuqori mehnat unumdorligini taminlash uchun aqliy va jismoniy faoliyatini ma'lum darajada birgalikda olib borish zarur. SHu maqsadda har xil trenajorlar, aerobika mashg'uloti, jismoniy tarbiya, yug'urish, sportcha yurishlardan foydalanish zarur.

Mehnat gigienistlari va fiziologlarining qayd qilishicha inson o'zining har qanday faoliyatida uning organizmini bioritmi mehnat va dam olish rejimlari bilan mos kelsa u eng yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan odamlarni bioritmini tadqiqotini ko'rsatishiga ularning mehnat samaradorligi ertalab yaxshilanib, yarim tunda o'zining eng yuqori darajasiga yetadi, so'ngra esa asta-sekin yomonlashib boradi

Mexnat muxofazasi va mexnat sharoitlarini yaxshilashda samaradorlik tadbirlari, hamda uning ko'rsatkichlari.

Mexnat sharoitlarini yaxshilashda quriladigan tadbirlarga: xamma xo'jalik faoliyatlarida qaratilgan ishlab chiqarishdagi zararli va xavfli omillarning ishlovchilariga ta'siri, ogoxlantirish, yo'qotish va pasaytirishlar kiradi. Xozirgi vaqtda mexnat sharoitlarni yaxshilashdagi tadbirlarni quyidagi ko'satkichlari mavjud: ish sharoiti-xolatining o'zgarishi, ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, iqtisodiy.

A) Ish sharoiti-xolatini asosan 4 grupp omillarga ajratish mumkin.

B) Ijtimoiy tadbirlar quyidagilardan, ishchilar sonining ko'payishi, mexnat sharoiti normalarida ko'rsatilganidek, normaga tug'ri keladimi yoki yo'qligi, ishlab chiqarish jaroxatlanishini qisqartirish, kasbiy va umumiylashtirishni kamaytirishlardan iboratdir.

V) Ijtimoiy-iqtisodiy – yuqorida ko'rsatilgan tadbirlarga ketadigan ishchi vaqtining va bo'ladigan xarajatlarning oxirgi natijalari.

G) Iqtisodiy natijalari 3 ta asosiy ko'rsatgichlarni xisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Xaqiqiy iqtisodiy samaradorlik, umumiylashtirishni samaradorlik va iqtisodiy samaradorliklarni taqqoslash.

Xaqiqiy iqtisodiy samaradorlikka, yil davomida qilingan tadbiriy-choralarga qancha xarajat bo'lgan, bularga yil davomida mexnat sharoitini yaxshilashdan

bo'ladigan samaradorlik ilmiy va loyixaviy tomondan xisoblanadi. Misol uchun mexnat sharoitini yaxshilashga xissa qo'shgan, ilmiy tekshirish institutlarga va loyixalashga ketgan mukofotlar, korxona ishchilariga ketgan mukofot pullaridir.

Umumiy iqtisodiy samaradorlikka esa, iqtisodiy natijalarining, qilingan xarajatlarga taqqoslashdir. Iqtisodiy taqqoslash esa, 2ta tadbiriylor choraga bo'lган, xarajat ko'rsatgichlarini vaqt birligi bilan birgalikda taqqoslashdir. Agar 2 lasidan qaysi biri kam xarajatli bo'lsa, shu tadbiriylor chora olinadi.

1.2. Ishlab chiqarishda xavfli va zararli omillarning ishchilarga ta'siri va ularni oldini olish

Mexnat jarayonida odam mexnat qurollari, mexnat predmetlari va boshqa odamlar bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari odamga xar bir ishlab chiqarishga bog'lik bo'lган parametrlar ta'sir qiladi (temperatura, namlik, shovqin, titrash, zararli narsalar, xar xil nurlanishlar va boshqalar).

Mexnat sharoiti asosan, odamning sog'lig'iga, ishslash qobilyatiga uning ishga munosabati va rezultatiga bog'lik.

Agar yomon mexnat sharoiti bo'lsa, bu ishlab chiqarishga ta'sir qiladi, bu esa shikastlanishni va kasbiy kasallikni kelib chiqishiga olib keladi.

Ishlovchilarning sog'lig'i, ishslash qobilyati, mexnatga munosabati ko'p jixatdan ishslash sharoitiga bog'lik bo'ladi.

Ishslash sharoiti deb, ishlovchining ish faoliyatida uning sog'lig'iga va ishslash qobilyatiga ta'sir etuvchi ishlab chiqarishdagi omillar majmuasiga aytildi.

Ko'pgina izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qayerda ish sharoiti yomon bo'lsa ish unumdarligi past bo'lib, shikastlanish va kasbiy kasalliklarning kelib chiqish extimoli, ish sharoiti yaxshi bo'lган korxonalarga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlangan.

Ishlab chiqarish muxitining ishchiga ta'siri mavjud mexnat sharoitlarini taxlil qilish va ushbu sharoitlarga xos bo'lган ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar kasbiy kasalliklar sabablarini aniqlashdan iboratdir.

Tog'-kon va mashinasozlik xamda boshqa sanoat korxonalaridagi ish o'rinalarida ishchilarining sog'lig'iga ziyon yetkazuvchi bir necha xavfli va zararli omillar mavjud. Ishlab chiqarish omillari ta'sirida kishi jaroxat olsa xavfli, kasallansa zararli omil deyiladi.

Insonga ta'sir etish jixatidan, xavfli va zararli omillar quyidagilarga bo'linadi.

Xavfli va zararli omillar.

- Fizikaviy
- Ximiyavyiy
- Biologik
- Asab-ruxiy

Ishlab chiqarishda ro'y beradigan fizikaviy omillarga quyidagilar kiradi: xarakatlanuvchi mashina va mexanizmlar, uskunalarining xarakatlanuvchi qismlarini ximoyalanmaganligi, material va tayyor buyumlar xarakati, ishlatiladigan uskunalarining ustki qismidagi xaroratning yuqori yoki pastligi, xavo xarakati va namligi elektr uskunalaridagi yuqori kuchlanish, shovqin va titrashning belgilangan normadan ortiqligi, ultrabinafsha va o'ta qiska tovushlar ta'siri, tabiiy va sun'iy yorug'liklarning yetishmasligi, elektromagnit nurlari yuqori va past barometrik bosim va xokazo.

Ishlab chiqarishdagi chang, zaxarli bug'larning kishi tanasiga, nafas olish yo'llari orqali o'tib burun bo'shlig'ining shilliq pardasiga, ovqat xazm qilish tarmoqlari, teriga ta'siri kimiyoviy omillar deyiladi.

Biologik omillar ish joyida ish sharoitida ishchining tanasiga mikroblar xamda bakteriyalar ta'sir etishi natijasida kelib chiqadigan yuqumli kasalliliklar misol bo'la oladi.

Asab-ruxiy omillar jismoniy va asab-ruxiy zo'riqishlardan iboratdir. Jismoniy zo'riqish statik va dinamik zo'riqishlarni o'z ichiga oladi. Muskullarning statik zo'riqish ishlovchilarining ishlash qobiliyatiga xamda sog'lig'iga katta zarar yetkazadi. Bunday zo'riqishlarga misol qilib ish bajarayotganda ishchining noto'g'ri vaziyatda turib ish bajarishi, ayrim ishchi organlarining ortiqcha

zo'riqishi, ishlovchi aktiv xarakatining chegaralanganligi va boshqa ishlarni olish mumkin.

Og'ir yuk ko'tarib bajariladigan ishlar, masalan, tushirish, yuklash, payvandlash, montaj va boshqa ishlar dinamik zo'riqishga misol bo'ladi.

Dinamik zo'riqishlar yengil va ogir zo'riqishlarga bo'linadi.

Yengil dinamik zo'riqishlarga, og'irligi 40 kg bo'lgan yukni yerdan ma'lum masofada ko'tarib ish kuni davomida umumiyligi og'irligi 4 tonnadan ortiq bo'lmasan ishlarni bajarilishiga, ogir dinamik zo'riqishlarga esa og'irligi 40 kg dan yuqori va ish kuni davomida 6 tonnadan ortiq ish bajarilishiga aytildi.

Asab ruxiy zo'riqishlarga miya, ko'z, qulqoq va shunga o'xshagan, kishi organlarining o'ta charchashi, ishning bir xilliligi va boshqalar misol bo'ladi.

Odamlar o'rtasida o'zaro muomala madaniyati bir kishining 2 siga yaxshi munosabatda bo'lishi, xamda qulay sharoitlar yaratib berish ishchilarga yaxshi kayfiyat bag'ishlash bilan birga, ularning ish qobiliyatini oshirib, jaroxatlanishni kamaytiradi.

1.Mexnat muxofazasining ilmiy metodik ishlab chiqarishda travmatizm kasbiy kasallanish sabablarini analiz qilish, mexnatning xavfsiz va zararsizligi nuqtai nazaridan texnologik protsesslarni bajarishning usul va vositalarini tadqiqot qilish, shuningdek ishlab chiqarishdagi qilinadigan ishlarining bajarishning xavfsiz va zararsiz metodlarini ishlab chiqishdir.

Mexnat sharoitlarini tadqiq qilishda mexnat protsessida kishi salomatligi va ish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish muxitining kompleks faktorlariga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish mikroiqlimi, xavo muxiti, zararli nurlanishlar, mexnat intensivligi, kollektivdagi ijtimoiy psixologik sharoit.

Zararli gazlar va ulardan ximoyalanish yo'llari. Havo muhiti va tarkibi changlardan tashqari ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish davrida yuzaga keladigan turli xil zaharli gazlar va ximiyaviy moddalar bilan ham ifloslanadi. Bu atmosfera havosini buzilishi bilan bir vaqtda turli xil kasallikkarni kelib chiqishiga ham sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelayotgan zaharli va zararli moddalar masalan, oqindi suvlar, axlatlar, ishlangan gazlar («выхлопные газы»), radioktiv moddalar, biotsidlar va boshqalar ekosistemaga kelib tushgach izsiz yo'qolib ketmaydi. Ularning kichik kontsentratsiyali miqdori ham uzoq vaqt ta'sir etishi, insonlarni, o'simliklarni va hayvonlarni zaharlashi mumkin. Ayrim zaharli moddalar oziqani tayyorlash va iste'mol qilish jarayonida ham ta'sir etishi mumkin. Masalan, zaharli moddalar o'simlikdan chorva mollariga, chorva mahsulotlari (sut, go'sht) orqali insonga ta'sir etib, turli xil kasallikkarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari zararli va zaharli moddalar yer yuzi iqlimini, shuningdek, atmosferani, troposferani (atmosferaning pastki qatlami), stratosferani (yer yuzidan 10-80 km uzoqlikdagi qatlami) va kriosferani (yer yuzining muzliklar va qorliklar bilan qoplangan yuzasi) ham o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Iqlimga ta'sir etuvchi muhim faktor – Yerning issiqlik balansidir. Albatta, bu quyosh nurlari ta'sirida yuzaga keladi. Hozirgi vaqtida «Yer – atmosfera» sistemasi issiqlik tengligi holatida bo'lib, yerga tushadigan 100% qisqa to'lqinli quyosh nurlarining o'rtacha 18% ti atmosferada yutiladi (3% - bulutlar va 16% havo orqali), 30% ti kosmosga qaytariladi (20% ti bulutlar va 6% havo hamda 4% yer yuzasi orqali). qolgan 51% qisqa to'lqinli quyosh nurlari yer yuzasida yutiladi. SHundan 21% qayta nurlanib uzun to'lqinli nurlar ko'rinishida kaytadi, 30% ti esa sezilarli (7%) va yashirin (23%) issiqlik ko'rinishida atmosferaga uzatiladi. Ushbu keltirilgan nurlar balansi Yerning «Issiqlik xo'jaligi» asosini tashkil etadi. Qabul qilingan nurlarning qaytgan nurlarga nisbati «albedo» deb ataladi. Maksimal yqaytarish xususiyatiga ega bo'lgan absolyut ok jismning albedosi birga teng. Yerning albedosi 0,30 ni tashkil etadi. Lekin, insoniyat tomonidan yerdan noto'g'ri foydalanish, o'rmonlarni kesilishi, cho'l yerlarni xaydalishi, sun'iy suv havzalarini barpo etilishi, atrof-muhitga minglab tonna chiqindilarni chiqarilishi, ishlab chiqarish jarayonlari natijasida tonnalab zaharli gazlar va moddalarning atmosferaga chiqarilishi issiqlik balansini o'zgarishiga olib kelmokda. Masalan, havo tarkibiga karbonat angidrid gazining oshishi ma'lum miqdorda iqlimi

isishiga olib kelishi mumkin. Karbonad angidrid gazi rangsiz gaz bo'lib, uning sof, toza havo tarkibidagi miqdori 0,03% ni tashkil etadi. Ushbu gaz tirik organizmlarni nafas olishida, neft va gazni yoqish jarayonida, bug' qozonlarida, issiqlik elektr stantsiyalarida, avtomobil ishlashi vaqtida ajralib chiqadi. Keyingi yuz yil ichida havo tarkibidagi karbonad angidrid miqdori 14% ga, hozirgi vaqtida esa har yili 0,4% ga oshib bormoqda. Industrial era (taxminan 1860 yillar) dan hozirgi vaqtgacha 140 mld.tonnaga yaqin uglerod atmosferaga chiqarilgan, hozirgi vaqtida esa atmosferaga jahon bo'yicha yiliga 8 mld. tonnaga yakin uglerod chiqarilmokda. Ushbu gazning havo tarkibidagi miqdorini oshib borishi atmosferada ma'lum katlam xosil kilib, issiqliknii kosmosga uzatilishini susaytiradi.Bu esa uz navbatida Yer yuzi haroratini ma'lum darajada oshishiga olib kelishi mumkin. Havo tarkibida karbonad angidrid gazining ma'lum miqdorda oshishi natijasida 2030 yilga borib havoning isishi 1,5-2,5oS ga yetishi taxmin qilinmokda. Haroratning oshishi esa okean sathining ko'tarilishiga olib keladi. Hozirgi vaqtida, keyingi 100 yil ichida harorat 0,5oS ga, okean sathi esa 10-15 sm.ga ko'tarilganligi kayd etilgan.

1987 yili Garbiy Berlinda bo'lib o'tgan Xalkaro Simpoziumda qayd etilishicha, ishlab chiqarishdasovutuvchi suyukliklarni, turli xil turdag'i aerozol ko'rinishiga ega tozalovchi vositalarni va uglevodorodlarni (freonlarni) keng ishlatilishi Antraktida «Ozon tuynugi» (Kora tuynuk)ni xosil bulishiga olib kelgan. Amerikalik olimlarning baholashiga «Ozon tuynugining» 1987 yilgi o'lchami AQSHning maydoniga teng kelgan. Hozirgi ma'lumotlar bo'yicha esa uning o'lchami Yevropa qit'asining o'lchami (20507000 kv. km) bilan barobardir. Oddiy misol, birgina kosmetik va shunga o'xshash kichik aerozol ballonlarni ishlatilishi natijasida yiliga 50 ming tonna freon atmosferaga chiqariladi. Bu albatta stratosferadagi ozon qatlagini yemirilishiga olib keladi.

Bundan tashqari millionlab kishilar havoning ifloslanishi va ifloslangan suvdan iste'mol kilish okibatida jigar kasalligi, rak kasalligi, turli xil yukumli va allergik kasalliklar bilan kasallanmokda.

Yuqorida keltirilgan gaz va zararli moddalardan tashqari oltingugurt, simob, qo'rg'oshin, asbest, uglerod oksidi (SO), oltingugurt oksidi, azot oksidi, uglevodorodlar, ammiak va shunga uxshash minglab zaharli moddalar ishlab chiqarish chiqindilari sifatida atmosferaga chiqarilmokda. Zoolog Drisherning kayd etishicha har yili atmosferaga insoniyatning faoliyati tufayli 40 ming xilga yaqin zaharli va zararli moddalar chiqindi sifatida chiqarilmokda. Masalan, bitta avtomobil yiliga o'rtacha 297 kg SO, 39 kg uglevodorod (kontserogen birikmalar), 10 kg azot oksidi, 2 kg chang, 1 kg oltingugurt ikki oksidi va 0,5 kg qo'rg'oshin birikmalarini chiqaradi. Hozirgi vaqtida sanoat va avtomobil transporti tomonidan atmosferaga chiqariladigan uglerod oksidining (is gazi) yillik miqdori taxminan 8 million tonnaga yetadi.

Davlat standarti bo'yicha inson sog'ligiga ta'sir etuvchi xavfli moddalar 4 sinfga ajratilgan:

1-sinf - favqulotda xavfli moddalar, REM=0,1 mg/m³;

2-sinf- yuqori xavflilikdagi moddalar, REM=0,1...1,0 mg/m³;

3-sinf- o'rtacha xavflilikdagi moddalar, REM=1,0...10 mg/m³;

4-sinf- kam xavflilikdagi moddalar, REM>10 mg/m³

Xuddi shuningdek ushbu zaharli moddalarning havo tarkibidagi o'limga olib keluvchi miqdorlari 1-sinf uchun 500 mg/m³; 2-sinf uchun 500-5000 mg/m³; 3-sinf uchun 5001-50000 mg/m³; 4-sinf uchun 50000 mg/m³ dan yuqori. Lekin, bu moddalarning havo orqali emas, balki boshqa yo'llar orqali oshqozonga yoki teriga ta'sir etgandagi ulimga olib keluvchi miqdorlari bir necha o'n barobar kichikdir. Masalan, 1-sinfdagи zaharli moddalarning oshkozonga tushgandagi o'limga olib keluvchi miqdori 15 mg/kg.ga tengdir.

Yuqorida keltirilgan zararli changlar, gazlar, aggressiv va zaharli moddalardan himoyalanish birinchi navbatda ish joyi havosi tarkibini o'rganish va uni REM talablari bo'yicha muvofiklashtirishni talab etadi. Buning uchun chang miqdorini aniklashda aspiratordan, gaz miqdorini aniqlashda UG-2, GX-2 markali gaz analizatorlaridan foydalilanildi.

Ish joyi havosi tarkibidagi zaharli gazlar yoki changlar miqdori aniqlangach, bu miqdor ruhsat etilgan miqdor (REM) bilan taqqoslanib ko'uriladi va ish joyini sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi.

Ish joylari havosini sog'lomlashtirishda bиринчи navbatda zararli changlar va gazlarning manbalari, ularni yuzaga kelishini kamaytirish yo'llari, ushbu zararli gaz va changlarni ish joyi zonasiga kirish sabablari o'rganilib, bartaraf etish choralarini ko'rildi. Agar ushbu zararli moddalarni yuzaga kelishini oldini olish mumkin bo'lmasa, u xolda ushbu gazlarni ish joyi zonasiga kirish yo'llari germetiklashtiriladi, hamda ish joylarida shamollatish qurilmalari o'rnatiladi. Yuqorida ko'rsatilgan tadbirlar yetarli darajada samarali bo'lмаган xollarda esa shaxsiy himoya vositalaridan foydalaniadi yoki ishlab chiqarish to'liq avtomatlashtirilib masofadan boshqarish sistemalari tadbik etiladi.

Texnosfera havosi tarkibidagi ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar.

Ishlab chiqarishdagi ko'pgina jarayonlar turli xil tarkibdagi chang va gazlarni ajralib chiqishi bilan amalga oshadi. SHu sababli, sof toza havo deyarli uchramaydi va havo tarkibida hamisha ma'lum miqdorda (1m^3 toza havo tarkibida 0,25 mg.dan 0,5 mg. gacha) changlar bo'ladi. CHanglar ko'rinishi va tarkibiga bog'liq holda quyidagi guruxlarga bo'linadi: organik, noorganik (mineral) va metall changlari.

Yirik changlar nafas olganda burun bo'shlig'ida qolib, o'pkaga kirmaydi. Mayda changlar esa (asosan, ulchami 10 mk. dan kichik bo'lган changlar) nafas orqali burun bo'shlig'idan o'tib, o'pkaga o'rnashadi va vaqt o'tishi bilan turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ayniksa diametri 0,3 mikrometr dan kichik changlar qonga tushishi ham mumkin. CHanglar o'z zarrachalari yuzasida turli xil zararli moddalar (berilli, kadmiy, nikel, qo'rg'oshin, xrom, mis, asbest, vanadiy va b.) bilan bog'lanib insonni kuchli zaharlanishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan chang turlari ichida ayniqsa metall changlari, jumladan qo'rg'oshin changlari inson uchun juda xavflidir. Qo'rg'oshin changlarining havo

tarkibidagi juda oz kontsentratsiyasi ham inson sog'ligiga salbiy ta'sir etadi. Masalan, 100 ml. qon tarkibida 35 mkg.qo'rg'oshin bo'lishi insonning bosh miyasi funktsiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashkari qo'rg'oshin qonda gemoglobin sintezining buzilishiga, muskul sistemalarini susayishidan tortib shol (paralich) bo'lishigacha, jigar, buyrak va miya faoliyatini buzilishiga olib keladi. Hozirgi vaqtida jahon bo'yicha 3,3 mln. tonna qo'rg'oshin ishlab chiqarilmoqda. Faqatgina avtomobillardan chiqadigan gazlar bilan havoga har yili 250 ming tonna qo'rg'oshin chiqarilmoqda. Amerikalik olimlar tomonidan bundan 1600 yil oldin yashagan janubiy Amerika tub aholisining suyak skeleti tarkibidagi qo'rg'oshin miqdori bilan hozirgi zamondagi odamlarning suyak skeletidagi qo'rg'oshin miqdoriga taqqoslanganda, bu miqdor hozirgi zamon odamlarida 700-1200 marta ko'p ekanligi aniqlangan.

Bundan tashkari qora metallurgiya, qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati, neftni qayta ishslash sanoati, energetika sanoati va qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish jarayonlarida ajralib chiqadigan turli xil organik va noorganik changlar ham inson hayoti uchun xavfli hisoblanadi.

Xulosa

Mexnat sharoiti asosan, odamning sog'lig'iga, ishslash qobiliyatiga uning ishga munosabati va rezultatiga bog'lik. Agar yomon mexnat sharoiti bo'lsa, bu ishlab chiqarishga ta'sir qiladi, bu esa shikastlanishni va kasbiy kasallikni kelib chiqishiga olib keladi. Ishlovchilarning sog'lig'i, ishslash qobiliyati, mexnatga munosabati ko'p jixatdan ishslash sharoitiga bog'lik bo'ladi.

Ishslash sharoiti deb, ishlovchining ish faoliyatida uning sog'lig'iga va ishslash qibiliyatiga ta'sir etuvchi ishlab chiqarishdagi omillar majmuasiga aytildi. Ko'pgina izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qayerda ish sharoiti yomon bo'lsa ish unumdorligi past bo'lib, shikastlanish va kasbiy kasalliklarning kelib chikish extimoli, ish sharoiti yaxshi bo'lган korxonalarga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniklandi. Ishlab chiqarish muxitining ishchiga ta'siri mavjud mexnat sharoitlarini taxlil qilish va ushbu sharoitlarga xos bo'lган ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar

kasbiy kasalliklar sabablarini aniklashdan iboratdir.Xulosa qilib aytadigan bo'lsam ishlab chiqarishda mexnat sharoyiti qanchalik yaxshi bo'lsa ishning jadaligi va ishchilarning sog'lig'i juda ham yaxshi ko'rinishda bo'ladi.

Xozirgi paytda xar tomonlama iqtisodiy tomondan yondashgan xolda ishlab chiqarish, ilmiy-texnik mexnat resurslari va materiallarini kurib chikish kerak. Bizning xukumatimiz xozirgi paytda katta mablagni mexnat sharoitini yaxshilash uchun ajratilgan. Bu mablag asosan ishlab chiqarishdagi jaroxatlanishlarni va kasbiy kasalliklarni oldini olishga ishlatiladi. Agar ish joyida mexnat sharoiti yaratilmasa, u xolda ishchilar jaroxat olishi va kasbiy kasallikkha uchrashi mumkin, buning oqibatida, ishga yaroqsiz bulib qoladi (pensiyaga chikadi), kasallanib qolsa bu uchun xaq to'lanadi, bu xarajatlarning xammasi iqtisodiy (korxona uchun) zarardir. Oddiy misol, ish joyidagi yoruglikning yaxshi bo'lishi , ishlab chiqarish unumdorligini 15-20% ga ustiradi. qQyosh yorug'ligi esa 10% ga ishlab chiqarishni ko'paytiradi. Ish joyini tug'ri tashkil qilish ishlab chiqarishda mexnat unumdorligini 21% oshiradi, yoki o'sha ish joyining rangiga boglik. Misol uchun ishlab chiqarishda shovqin normadan yuqori bo'lsa mexnat unumdorligi $3 \div 20$ % gacha pasayadi (bu shovqinning kuchiga bog'lik). Agar boshqa , ya'ni temperatura, xavo namligi va boshqalar xam mexnat unumdorligini ishlab chiqarishda pasaytirishi mumkin. Agar mexnatga yaroqsizlik kunlarini 1 kunga kamaytirsak x/x da (k/x dan tashkari) 68,58 mln. ish kuni ko'payadi, bu esa milliy daromatni ko'paytirish demakdir. Ish kunining mexnatga yaroqsizligi tufayli yuqolishi yillik ish kunlarining 2,5% ni tashkil etadi (xar xil korxonalarda). Bu, ish sharoiti yaxshi bo'limgan korxonalarda esa $5 \div 10$ % ni tashkil etadi.

II. “UZ DONG CO” KORXONASINING ISH FAOLIYATI.

2.1. Korxonaning umumiy tavsifi

“Uz Dong Yang CO” qo’shma korxonasıdır. Korxona 1997-yil 28-iyunda tashkil etilgan. “Uz Dong Yang CO” qo’shma korxonasi ikki davlat o’rtasida O’zbekiston respublikasi tomonidan Andijon viloyatidagi Andijon mebel hissadorlik jamiyatı va Janubiy Koreya tomonidan “Dong Evxa Indutrial CO” LTD korxonaları o’rtasida tashkil etish bo‘yicha O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 5-yanvarda ro‘yxatga olingan.

1997-yil sentabr oyidan boshlab korhonada Nexia va Damas avtomobilari uchun ichki qismlar, 2010-yil avgust oyidan boshlab korhonada Spark avtomobilari uchun qismlar, 2012-yil oktabr oyidan boshlab esa Cobalt avtomobilari qismlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Korxona hozirda Nexia, Matiz, Damas, Cobalt, Lasetti Gentra va Spark avtomobilari uchun ichki bezak va o‘rindiqlar uchun g‘iloflar qoplamlarini ishlab chiqaradi. Korhonaning umumiy maydoni 27 318m². Bundan korhonaning ishlab chiqarish maydoni 14 184 m² ni tashlil etadi.

“Uz Dong Yang CO” qo’shma korxonasi asosan “GM Uzbekistan” hamda “Uz Tong Hong CO” qo’shma korxonalariga ishlab chiqargan mahsulotlarini yetkazib beradi.

«Uz - Dong Yang Co» qo’shma korxonasing asosiy faoliyat turi yengil avtomobilarga ichki jixoz qismlarini va avtomobil o‘rindiqlariga g‘ilof ishlab chiqarishdan iborat.

Asosiy - ishlab chiqarish sexidan, ma’muriyat binosidan, proxodnaya, yonilg‘i-moylash materiallari ombori (sklad GSM) lardan iborat. Ishlab chiqarish soxasiga taalluqli bo‘lgan muxandislik kommunikatsiyalari, stanok va jixozlarga va suv sig‘imlari, kompressor stansiyasi va boshqalarga communal xo‘jalik boshqarmasi xizmat ko‘rsatadi. Korxonaning asosiy xududida xom-ashyo omborxonasi, yonilg‘i-moylash moddalar omborxonasi, konteynerlar maydonchasi, avtomobil yo‘llari, piyodalar yulaklari va boshqalar mavjud.

Bundan tashqari chiqindilar uchastkasi, avtotransport turar joylari hamda 1 ta oshxona bo‘lib, 240 kishiga mo‘ljalangan va ma‘muriy binoda joylashgan. Ofis binosida tibbiyat punkti va xaydovchilar dam olish xonasi joylashgan. Korxona xududida o‘t o‘chirish qismi xizmat ko‘rsatadi. Korxonani qo‘riklashni qorovullar xizmati amalga oshiradi. Korxonaga ruxsatnoma (propusk) bilan kiritiladi. Xodimlarni ishga va uyga olib borib qo‘yishni kompaniya avtobusi bajaradi. Korhona hozirda zamonaviy tehnologiyalar bilan jixozlangan labaratoriyyaga ega va bu labaratoriyyada korhonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sinash amalga oshiriladi.

Sohada yuqori malakali muhandis va ishchi-xodimlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2011 yil 20 maydagи “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1533-sonli Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Andijon muhandislik-iqtisodiyot institutini Andijon mashinasozlik institutiga aylantirish to‘g‘risidagi 2011 yil 25 iyuldagи 214-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2011 yil 29 iyuldagи 319-sonli buyrug‘iga binoan Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti negizida Andijon mashinasozlik instituti tashkil qilindi. Bundan ko‘rinib turibdiki yetuk malakaga ega bo‘lmagan mutaxassislar siz kelajakni barpo etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi kunda Andijon mashinasozlik instituti yetuk mutaxassislar taylorlab bermoqda. Xozirgi kunda korxonada institutni bitirgan talabalari yetakchi lavozimlarda ishlab o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘lab kelishmoqda.

Xozirgi “Uz Dong Yang CO” Korxonasining texnologik jarayonini o‘rganish va maxsulot sarfini optimallashtirishning muhim jixatlaridan biri bu chet eldan kirib keladigan hom ashyo miqdorini kamaytirish, mahalliylashtirishni keng ko‘lamda amalga oshirish, yanada sifatli mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, hozirda “Uz Dong Yang CO” qo‘shma Korxonasida ishlatiladigan materiallarning ko‘pchiligi bu turli xil polimer mahsulotlaridir. Korxonada polimer mahsulotlarning ko‘plab turlari ishlatilganligi sababli ularning

bazilarining narxlari yuqori boladi. Bundan ham ochiq ko‘rinib turibdiki, “Uz Dong Yang CO” qo‘shma Korxonasining texnologik jarayonini o‘rganish va maxsulot sarfini optimallashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. “Uz Dong Yang CO” qo‘shma korhonasida ishlab chiqariladigon mahsulotlarning aosiy qismi polimer mahsulotlardan tayyorlanadi. “Uz Dong Yang CO” qo‘shma korhonasi avtomobillar asosan uchun ichki bezaklar va o‘rindiqlar ishlab chiqaradi. “Uz Dong Yang CO” qoshma korhonasi ishlab chiqaradigan ichki bezaklarning aosiy qismi polimer mahsulotlar hisoblanadi. Hususan avtobobillarning eshik pol hamda shift qoplamarining kop jixozlari polimer mahsulotlaridan tayyorlanadi. Avtomobilarning bu qismlarini ishlab chiqarish uchun turli hildagi polimer mahsulotlar ishlatiladi.

Quyida polimer materiallaridan tayyorlangan avtomobilning butlovchi qismlari
hamda ehtiyoj qismlari keltirilgan:



2.1-rasm.Eshik qoplamlari



2.2-rasm.Orqa tokcha



2.3-rasm.G`idirak qoplamasi



2.4-rasm.O`tirgich qoplamlari



2.5-rasm.Yukxona qoplamasi


Quyda aytib o'tganimdek “Uz Dong Yang CO” qo‘shma korxonasida ishlab chiqariladigon mahsulotlarning aosiy qismi polimer mahsulotlar tayloranadi shuning uchun ham birmuncha xavfsizlik sohasiga birmuncha etibor kuchliroq

chunki polimer va poliolefinlarning ishlab chiqarishda yong`in xavfli va portlovchi kategoriylar (A kategoriya) mansub: etilen va propilen havo bilan portlovchi aralashma hosil qiladi. Har ikki monomer narkotik tasirga ega. Etilen havodagi ruxsat etilgan konsentratsiya chegarasi (REKCH) $0,05 * 10^{-3}$ kg / m³; REKCH - propilen - $0,05 * 10^{-3}$ kg/m³. Yuqori bosimda ishlab chiqarilgan polietilen o`ta xavfli bo`lib, undan foydalanish jarayoni yuqori bosim va harorat bilan bog`liqdir. Etilenning parchalanishi portlash bilan bog`liq bo`lgani uchun polimerlanish vaqtida reaktorda maxsus xavfsizlik qurilmalar (membrana) bilan jihozlangan polimerizitsion reaktor qurilmalar bilan ta'minlagnadi va bokslarda joylashtiriladi. Jarayonini boshqarish to`liq avtomatlashtirilgan. Qisqa qilib aytganda polimer mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi xodimlarga va ekologiyaga ham ta`siri yuqoridir.

“Uz Dong Yang CO” qo’shma korxonasida avtomobilarga ichki bezak, qoplamlalar hamda o‘rindiqlar ishlab chiqarish jarayoni to’liq avtomatlashtirilgan quyda “Uz Dong Yang CO” korxonasi dagi jixozlar bilan tanishib chiqamiz.



2.6-rasm. Presslash jixozlari



2.7-rasm.Termoplast apparatlari

Qisqa qilib aytganda korxonada jixozlar zamon talabiga javob bera oladi korxonada ishchi xodimlarning mexnat sarfini kamaytirish maqsadida jaryonlar ko'pi avtomatlashtirilgan.

2.2. Korxonada mehnatni muhofaza qilish sohasidagi

ishlarni tashkilashtirish

«Uz - Dong Yang Co» qo'shma korxonasining asosiy faoliyat turi yengil avtomobilarga ichki jixoz qismlarini va avtomobil o'rindiqlariga g'ilof ishlab chiqarishdan iborat.

Korxonaning asosiy xududida xom-ashyo omborxonasi, yonilg'i-moylash moddalar omborxonasi, konteynerlar maydonchasi, avtomobil yo'llari, piyodalar yulaklari va boshqalar mavjud.Bundan tashqari chiqindilar uchastkasi, avtotransport turar joylari hamda 1 ta oshxona bo'lib, 240 kishiga mo'ljalangan va ma'muriy binoda joylashgan. Ofis binosida tibbiyot punkti va xaydovchilar dam olish xonasi joylashgan.

Korxona xududida o't o'chirish qismi xizmat ko'rsatadi. Korxonani qo'riklashni qorovullar xizmati amalga oshiradi. Korxonaga ruxsatnoma (propusk) bilan kiritiladi. Xodimlarni ishga va uyga olib borib qo'yishni kompaniya avtobusi bajaradi. Amaldagi Konstitutsiyaga binoan ijtimoiy boylik xalq va har bir kishi farovonligining o'sish manbai kishilarning ozod mehnatidir.

Ishchi va xizmatchilar mehnat qilish huquqini korxona, muassasa, tashkilotlarda mehnat shartnomasi tuzish yo‘li bilan amalga oshiradilar.

Xodimlar sarflangan mehnatga mutanosib ravishda davlat tomonidan kafolatlangan ish xaqi olishga, ish kuni, ish haftasini chegaralash xaqidagi, har yilgi xaq to‘lanadigan mehnat ta’tili to‘g‘risidagi qonunlarga binoan dam olishga, to‘g‘ri hamda xavfsiz mehnat sharoitlariga, betoblik va mehnatga layoqatsizlik xollarida davlat hisobidan moddiy ta’minalash huquqiga egadirlar.

Ishchi yoki xizmatchi o‘ziga yuklangan ishni shaxsan bajarishi lozim. U bu ishni qonunlarda ko‘zda tutilganidan tashqari xollarda boshqa shaxsga topshirish huquqiga ega emas. Ayni paytda, ma’muriyat ham mehnat shartnomasida ko‘rsatib o‘tilmagan ishlarni ishchi yoki xizmatchidan talab qilishga xaqsizdir.

Korxona, tashkilotning ishlab chiqarish ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lgan xollarda ma’muriyat ishchi yoki xizmatchilarni shu korxona tashkilotning o‘zida bir oygacha bo‘lgan muddatga mehnat shartnomasida ko‘zda tutilmagan ishlarga ham jalb etishga xaqli, bunda ish xaqi bajariladigan mehnat ko‘lamiga bog‘liq, ammo avvalgi ishining o‘rtacha maoshidan kam bo‘lmasligi shart.

Zararli mehnat sharoitiga ega bo‘lgan ishlarda, shuningdek alohida haroratlari yoki iflos sharoitda bajariladigan ishlarda xodimlarga belgilangan me’yorlarga ko‘ra maxsus poyafzal va boshqa shaxsiy ximoya vositalari tekin beriladi. Iflos sharoitli ishlarni bajarishda belgilangan me’yorlarga ko‘ra (oyiga 400 gr.) tekin sovun beriladi.

Ish sharoiti zararli bo‘lgan joylarda xodimlarga belgilangan me’yorlarga ko‘ra sut yoki uning o‘rnini qoplay oladigan boshqa maxsulotlar tekin beriladi.

Ogori ishlarda va mehnat sharoiti zararli bo‘lgan yohud nosoz sharoitli ishlarda band bo‘lgan xodimlar ishga qabul qilishdan oldin va ish davomida vaqt-vaqt bilan zimmalaridagi ishni bajarishga yaroqlilagini aniqlab va kasalliklari rivojlanishining oldini olish maqsadida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib turiladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan, xodimlarning mehnat majburiyatlarini bajarishga aloqador

ravishda mayib-majruhligi yoki boshqa tarzda sog‘ligiga putur yetganligi kabi zararlar uchun moddiy javobgar bo‘ladilar.

Ishlarni bajarishning xavfsiz shart-sharoitlari talablari mehnat xavfsizligi standartlarida ko‘rsatilgan. Ishchi xodimlarga yaratilgan sharoyitlar esa sanitarya gigiyena talablariga javob bera oladigan shart-sharoitlarda ishlashmoqda.



2.8-rasm.Instrumentlar paneli va eshik qoplamlarini yig’ish jarayoni



2.9-rasm. Tikish mashinasidagi ish jarayon.

Mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog'ligini va xavfsizligini ta'minlash uchun yo'naltirilgan qonunlar majmuasi, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, profilaktik tadbirlar va vositalardir.

Mehnatkashlarning sog'ligini muhofaza qilish, xavfsiz ish sharoitlarini yaratib berish, kasbiy kasalliklarni va ishlab chiqarish jarohatlarini yo'qotish O'zbekiston Respublikasi hukumatining asosiy g'amho'rlikligidan biridir.

Mehnat muhofazasi qonunlarida quyidagilar ko'rsatilgandir:

- korxonalarda mehnatni muhofaza qilishni tashkil etish qoidalari, uni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash;
- xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari, shu bilan birga kasbiy kasalliklar va ishlab chiqarish jarohatlaridan saqlanish shaxsiy vositalari, zararli ish sharoitlari uchun tovon to'lash;
- ayollarning, yoshlarning va mehnat imkoniyatlari cheklanganlarning mehnatini muhofaza qilish qoida va me'yorlari;
- mehnat muhofazasi sohasida nazorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qoidalari;
- mehnat muhofazasi qonunlari buzilganda qo'llaniladigan javobgarlik;

Ishlab chiqarish korxonalarida odamga ko'pincha past va yuqori harorat, kuchli issiqlik nurlari, chang, titrashlar (vibratsiya), elektromagnit to'lqinlari, zaharli ximiyaviy moddalar, shovqin va boshqalar ta'sir ko'rsatadi: bular kishi sog'ligining buzilishiga va ish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday noxush ta'sirotlar va ulardan kelib chiqadigan asoratlarning oldini olish uchun ishchilar sog'ligi, shuningdek sanitariya-texnika moslamalari va qurilmalarining holati, sanitariya-maishiy jihozlar, individual himoya vositalari sinchiklab tekshiriladi.

Kasbiy kasalliklar asosan to'rt guruhga: tashkiliy sabablar, gigienik sabablar, texnik va ruhiy fiziologik sabablarga bo'linishi mumkin.

Tashkiliy sabablar:

- xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va yong'in xavfi bo'yicha yo'riqnomaning umuman o'tkazilmaganligi va sifatsiz o'tkazilganligi;
- ish joylari, yo'lak va transport yo'llarining to'silib qolishi;
- ish vaqtidan tashqari ishslash;

Gigienik sabablar:

- oqova suvlaridagi va havodagi zararli moddalarning yuqori kontsentratsiyasi mavjudligi;
- yoritilganlikning yetarli emasligi yoki ularning noqulay o'rnatilganligi;
- tsexlarda shovqinning me'yordan ortiq bo'lishi;
- har bir ishchiga to'g'ri kelishi kerak bo'lgan maydon va hajm bo'yicha ko'rilib me'yorlarining buzilishi;

Texnik sabablar:

- uskuna va mexanizmlarning nosozligi;
- mashinalarning xavfli joylarining to'silmaganligi;
- og'ir va sermehnat ishlarning yetarli mexanizatsiyalashtirilmaganligi;

Ruhiy-fiziologik sabablar:

- haddan ortiq charchash;
- ishning og'irligi;
- ishning monotonligi;
- ishlab-chiqarish va mehnat intizomining buzilishi;
- ishchining nosog'lomligi;

Kasb kasalliklari mehnat qobiliyatining pasayishiga, o'tkir va surinkali zaharlanishning avj olishiga, umuman kasalliklarning ko'payishiga, uzoq muddat o'tgandan keyin paydo bo'ladijan yomon asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

Charchashning tez yoki sekin ro'y berishi mehnatning xususiyatiga bog'liq:

Kishi bir tarzda turib muskullariga zo'r keladigan ish bajarganda ancha tez, bir tekisda ish bajarganda birmuncha sekin toliqadi.

Charchashning oldini olish uchun bekorchi harakatlarni bartaraf qilishga, ish o'rinlarining ratsional tashkil etilishiga, ish vaziyatiga va mashq qilishiga katta e'tibor berish kerak. Tikuvchining gavdasi stol chetidan 10-15 sm. narida turishi, tikayotgan bo'lak va ko'z orasidagi masofa taxminan 30-35 sm. bo'lishi kerak. Tirsagi stol sathida bo'lib, qo'l panjalari mashina platformasida turishi lozim, oyoq muskullari zo'riqishini kamaytirish uchun oyoq tagiga taglik qo'yiladi, mashina tepkisining oldingi tomoni poldan 220mm. baland turishi, tepki 20 gradus burchak ostida og'gan bo'lishi, oyoq qulay harakatlanishi, tepkining oldingi chetidan stul o'rindig'inining orqa chetigacha bo'lgan oraliq (gorizontal bo'lib) 650 mm. dan oshmasligi lozim.

Ish joylarida mikroiqlim omillari – harorat, nisbiy namlik, havoning tozaligi hamda atmosfera bosimi tashkil etadi. Bunday muhit kishi organizmiga salbiy ta'sir qilib, uni sovitib yoki qizitib boradi. Kishi organizmning me'yoriy harakati 36-37 gradus bo'ladi. Organizm o'zi uchun zarur bo'lgan haroratni ta'minlab turish qobiliyatiga ega.

Sex havosining harorati yuqori bo'lganda qon tomirlari kengayib, teriga qon me'yordan ko'p kela boshlaydi va atrof muhitga issiqlik uzatish bir muncha ko'payadi. Shuning uchun issiq tsexlarda sal sho'rlangan gaz suvlari beriladi.

Sexlardagi havo harorati pasayganda, qon tomirlari torayib, teriga qonning kelishi susayadi va tanada tashqi muhitga issiqlik berishi kamayadi. Kishi o'zini yaxshi his qilishi uchun harorat nisbiy namlik va havo harakati tezligi uyg'un bo'lishi zarur. Odamlar bino ichida uzoq vaqt bo'lganlarida bino havosi og'irlashadi. Shuning uchun binoni shamollatib, havosini almashtirib, iflos havoni chiqarib, tozasini kiritish zarurati tug'iladi.

Sex havosini shamollatish tabiiy va mexanik bo'ladi. Mexanik shamollatish vintelyator va konditsionerlar bilan amalga oshiriladi. Agar havoni almashtirish fortochka, deraza yoki devor teshiklari orqali amalga oshirilsa, tabiiy shamollatish deyiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida tsexlarda chang ajralib kishi bunday havodan nafas olganda yuqori nafas yo'llari qichiydi va kishi o'zi hohlamagan holda yuzaki nafas oladi. Bu esa o'pka faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Chang, ko'z shilliq pardalarini qichittirib konyuektivit kasalligini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari chang zarrachalari tuberklyoz tayoqchalarini va zaruriy bakteriyalarni tashuvchi vositadir. U lampalar ustiga o'tirib, tsexdagi yorug'likni kamaytiradi. Bu esa ishchilar faoliyatiga va sog'ligiga ta'sir qiladi.

Sexdan shamollatish sistemasi orqali so'rib olingan havo atmosferaga chiqarib yuborishdan oldin zararli moddalardan tozalanadi. Retsirkulyatsiya uchun tsexga qayta yuboriladigan havo zararli moddalarning miqdori 0,3 YKBK dan oshmasligi kerak. Hozirgi kunda changli havoni tozalovchi uskunalarning ko'plab turlari mavjud.

Ishlab chiqarish sharoitida yoritganlik ishchilar salomatligiga zarar yetkazmasligi uchun u ko'zni zo'riqtirmaydigan, ish vaqtida xonaning hamma qismlarida bir tekis taqsimlangan bo'lishi talab qilinadi. Yorug'lik ko'zni qamashtirmaydigan bo'lishi, yorug'lik nurlari ko'zga to'g'ridan-to'g'ri tushmasligi kerak.

Ma'lumki, tabiiy yorug'lik manbai quyoshdir. Sun'iy yorug'lik manbai esa elektr energiyasi bo'lib, u cho'g'lanma va lyuminestsent lampalar orqali amalga oshiriladi.

Lyuminestsent lampalar ishchilarni kamroq toliqtiradi, ranglarni idrok qilish qobiliyatları ortadi.

Turli balandlikdagi va chastotadagi tovushning tartibsiz ravishda qo'shilib eshitilishi shovqin deb ataladi. Tovush fizik holat sifatida, suv va boshqa tarang muhitdan kelib chiqadigan to'lqinsimon harakatlardan iborat. Shovqin kasbiy kasallikka olib kelishi mumkin. U boshni aylantirib, miyada og'riq turg'izadi va qulq shang'illab asab sistemasiga ham yomon ta'sir qiladi. Ayniqsa fikrni to'plab, aqlii ish bilan shug'ullanishga imkon bermaydi, ish qobiliyatini (10-60% ga) pasaytirib yuborishi mumkin.

Shovqin turli a'zolar va sistemalarning hazm qilish (oshqozon shirasi sekretsiyasining o'zgarishi), qon aylanishi (qon bosimining ko'tarilishi) va shunga o'xshashlarning normal faoliyati buziladi. Shu bilan birga gaz va suyuqliklarning harakati natijasida hamma shovqin chiqishi mumkin.

Ishlab chiqarishda maxsus shovqin yutuvchi vositalar ishlatiladi. Chunonchi, poydevorlarni amartizatsiyalovchi, tovush o'tkazmaydigan va tovush yutuvchi qurilish materiallaridan, qurish, tovushni izolyatsiyalovchi to'siqlar va qoplamlar ishlatish, mashinalarni izolyatsiyalash (ularni germetiklash) va boshqalar yordamida shovqin bir muncha pasaytiriladi.

Titplash kishi organizmiga salbiy ta'sir qiladi, natijada ish unumdarligini pasaytiradi, ko'pincha og'ir kasbiy kasallik-titplash kasalligiga olib keladi. Shuning uchun titplashga qarshi tadbirlarga alohida ahamiyat beriladi. Titplash kasalligi kasbiy kasalliklar tarkibiga kiradi. Kasallik ko'p hollarda o'tib ketsa, nogironlik olib kelishi mumkin.

Mashina va mexanizmlarning titplashini kamaytirish quyidagi usullarda olib boriladi:

- rezonans holatidan chiqarish;
- titplashni dempferlash;
- titplashni dinamik so'ndirish;
- titplashni ixotalash va shaxsiy himoya vositalarini qo'llash.

Qo'lni titplashdan saqlash uchun maxsus qo'lqoplar ishlatiladi.

Elektr tokidan shikastlanish (tok urishi) ishlab chiqarishda ko'p kuzatiladi. Elektr toki organizm orqali o'tganda issiqlik, elektrolitik va biologik ta'sir ko'rsatadi. Issiqlik ta'siri badanning ayrim joylarining kuyishi, qon tomirlari, asab va boshqa to'qimalarning qizishi bilan xarakterlanadi. Elektromagnit ta'sir qonunining va boshqa organik suyuqliklarning qurishiga va ularning fizik-ximik tarkibining buzilishiga olib keladi.

Tok urgan joyga birinchi yetib kelgan kishi hammadan avval shikastlangan kishini tok ta'siridan qutqarishi (rubilnikni ajratib qo'yish, simni qirqish, tayoq bilan simni urib tushirish) lozim. Tokni uzib qo'shishning iloji bo'lmasa,

shikastlangan kishining ochiq badaniga tegmasdan, ustki kiyimlaridan ushlab, qo'liga rezina qo'lqop kiyib, avtomobil shinasi, taxta, quruq latta ustiga chiqib yoki oyoqga rezina payabzal kiyib shikastlangan kishini, tok ta'siridan xavfsiz joyga olib chiqish kerak.

So'ngra zudlik bilan tez yordam mashinasini chaqirish lozim. Shikastlangan kishini «Og'zidan-og'ziga» yoki «Og'zidan-burniga» puflash usulida nafas oldirishga harakat qilinadi, yurak yopiq massaj qilinadi.

Texnika xavfsizligi

Texnika xavfsizligi mehnat qilish uchun xavfsiz sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar sistemasidan iborat. Sexlarda qo'lga igna kirib ketishi, qo'lni nimadir kesib olishi, mashinalarning kiyim yoki sochni o'rab ketishi, dazmol yoki presslarda biron joy ko'yib qolishi, tugma yoki igna parchalari uchib yuzga tegishi natijasida ishlovchilar jarohatlanib qolishi mumkin. Texnika xavfsizligi qoidalari noxushlik va baxtsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Qo'l va mashina operatsiyalarida ishlovchilar quyidagi qoidalarga riosa qilishlari lozim:

1. Ish bajarayotganda ziyrak bo'lish kerak.
2. Mashina asbob va moslamalarning ishga yaroqligini tekshirib turish lozim.
3. Simlarga ip, latta, simchalar osmaslik kerak.
4. Tugma qadash mashinasida ishlaganda saqlash ekranidan foydalanish zarur.
5. Elektr dvigatelni o'chirmsandan mashinaga moy surtish, uni tozalash, mashina shkiviga tasma kiydirish man etiladi.
6. O'z ish o'rnini toza tutish lozim. Asboblar sochilib yotmasligi, qaychi va iplar mashinaning aylanayotgan qismlari yoniga qo'yilmasligi kerak;
7. Ish o'rnlari orasidagi yo'lni to'smaslik lozim.
8. Elektr dazmolda ish boshlashdan oldin shnur izolyatsiyasini tekshirish lozim.
9. Dazmolning, rubilnikning, shtepsel rozetkasining, vilkaning tok o'tkazuvchi qismlariga qo'l tekkizmaslik kerak.
10. Ishlayotganda shnur dazmolga tegib turmasligi kerak.

11. Pressda ishslashda uning yaroqligini, to'siq borligini, korpusning yerga ulanganligini, elektr qismida izolyatsiya borligini tekshirish kerak. Buzuq pressda ishslash man etiladi.
12. Qo'lniyostiqlariorasidaqolishidanehtiyotbo'lishlozim.
13. Ishlayotgan pressni nazoratsiz qoldirish mumkin emas.
14. Buyumni namlayotganda suvni apparatlarga va termorostlagichga tushirmaslik kerak.
15. Ish tugagach pressni to'xtatib, ish o'rmini yig'ishtirish kerak.

Qurilish-montaj va maxsus ishlarning barcha turlaridagi ishlab chiqarishda mehnat qilayotganlarning sog'ligi va mehnati xavfsizligini ta'minlash standartlashning tub maqsadidir. Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST) ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligini ta'minlashda:

Xavfsiz» texnologik jarayonlari, shuningdek xavfsiz ish usullari, rejimlarini va ishlab chiqarish uskunalarini ishlatish tartiblarini tanlab olish; - ishlab chiqarish maydonlarini tanlab olish (ishlab chiqarish va ish o'rinlarini tashkil etishga asoslanadi).

Ish vaqtı - xodimlarning korxonada ularga topshirilgan yumushlarni bajarishlari uchun ajratilgan vaqtidir. O'zbekiston Respublikasida ish vaqtı qonun hamda unga asoslab chiqarilgan me'yoriy xujjatnomalar bilan qat'iy majburiy mehnat chorasıdir. Ishchi va xizmatchilar ish vaqtining korxonalar, muassasalar va tashkilotlardagi me'yoriy davomiyligi haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak (MKning 115-modsasi).

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati:

- 1) 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan, 15 dan 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar (ta'til davrida ishlayotgan 14 dan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) uchun esa haftasiga 24 soatdan ishlaydigan qilib belgilanadi (MKning 242- moddasi).
- 2) Zararli mehnat sharoitiga ega bo'lgan ishlarda band xodimlar uchun esa haftasiga 36 soatdan oshmasligi kerak (MKning 117-moddasi).

Dam olish vaqt – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muxim konstitutsion huquqidir. Dam olish vaqt O‘zbekiston Respublikasida qonun bilan belgilab beriladi. Bunda dam olishning: ish kuni davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus, kundalik ishdan keyin dam olish va haftalik dam olish (dam olish kunlari), bayram kunlari va yillik mehnat ta’tili kabi turlari ko‘zda tutilgan.

Besh kunlik ish haftasi amal qiladigan korxona, muassasa va tashkilotlarning xodimlariga har haftada ikki kun, olti kunlik ish sharoitida esa bir kun dam olish beriladi (MKning 129-moddasi).

Zararli mehnat sharoitiga ega bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarga, shuningdek ish kunining vaqt cheklanmagan xodimlarga kasaba qo‘mitasi bilan kelishilgan xolda yillik qo‘shimcha mehnat ta’tili beriladi. Ayollar va bolalar mehnatini ximoya qilish. Ogir ishlarda ayollarning qo‘l mehnatidan va zararli ishlarda foydalanish mehnat qonunlariga ko‘ra taqiqlanadi. Shuningdek ayollarning ular uchun belgilangan me’yorlar miqdoridan ortiqcha bo‘lgan yuklarni tashish va surishlari ham taqiqlanadi (MKning 225-moddasi).

Amaldagi qonunlarga binoan, ayollar ko‘taradigan va suradigan har bir alohida yuk vazni 9 kg dan oshmasligi kerak.

Ayollarni tunda bajariladigan ishlarga jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan faqat xalk xujaligining alohida extiyoji bulgan xollarda vaqtincha chora sifatida ruxsat berilishi istisnodir (MKning 228-moddasi).

Xomilador ayollar va emizikli bolasi bor ayollarni, shuningdek uch yoshga to‘lмаган go‘даги bor ayollarni tungi vaqtdagi ishlarga, dam olish kunlari, ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etishga, xizmat safariga yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi.

18 yoshga to‘lмаган shaxslarni og‘ir va zararli mehnat sharoitiga ega bo‘lgan ishlarga, shuningdek xavfli ishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan o‘gil bolalar 13kg, kizlar 7kg gacha ortik yukni ko‘tarib tashishlari mumkin emasligi me’yor sifatida belgilab

qo`yilgan. Ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalligiga chalinishni tekshirish hamda rasmiylashtirish tartibi.

Shikastlanishni tekshirish, qayd qilish va hisobga olib borish 1997 yil 06 iyundan amalga kiritilgan "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshka xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to`g`risida nizom"ga asosan amalga oshiriladi.

Korxona xududida yuz bergen, shuningdek jabrlanuvchilar tomonidan korxona xududidan tashqari mehnat majburiyatini, korxona ma`muriyatini topshirig`i, ish rahbarining farmoyishini bajarishda yuz bergen barcha baxtsiz hodisalar, agar ular jabrlanuvchining kamida bir kun mehnat qobilyatini yo`qotishga olib kelgan bo`lsa, tekshiruvdan o`tkazishi hamda N-1 shakldagi dalolatnama asosida qayd qilinib, hisobga olinishi lozim.

N-1 shakldagi dalolatnama asosida qayd qilingan barcha baxtsiz hodisalar qayd daftariga kiritiladi.

Ichki tartib koidalari

O`zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining tegishli moddalariga muvofik O`zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi mehnat intizomiga rioya qilishga majburdir. U xodimlarning o`z mehnat majburiyatlarini ongli va xalol tarzda bajarishlariga asoslanadi hamda mehnat faoliyati yuksak unumdarligining zarur shartidir.

Xodimlarni ishga qabul qilish yoki belgilangan tartibida uni boshqa ishga o`tkazishda ma`muriyat quyidagilarni o`z zimmasiga oladi:

1) xodimni ish-joy sharoiti bilam tanishtirish hamda uning huquqi va majburiyatlarini anglatishga;

2) uni ichki tartib qoidalari va korxonaning jamoa shartnomasi bilan tanishtirish hamda uning majburiyatlarini anglatishga;

Korxonada ish boshlanish vaqt 8:00, tushki tanaffus 12:00 dan 12:50 gacha, ish tugashi 16:50 kilib belgilangan.

Xodimning mehnat intizomi borasidagi boshka huquq va majburiyatlari ichki tartib qoidalarda to`liq yoritilgan.

Ogox qiluvchi belgilar

Qurilish maydonida shikastlanish va falokatlarga qarshi samarali kurash olib borish uchun zarur sharoitlarni yuzaga keltirish uchun xavfli joylarda, shuningdek mehnat muhofazasi buyicha maxsus chora-tadbirlar ko‘rishni takazo etadigan joylarda ish olib borilgan chog‘da qurilish xavfsizlik belgilari o‘rnataladi. Bu belgilar qo‘llanishga qarab to‘rt guruxga: taqiqlovchi, buyuruvchi, ogoxlantiruvchi va ko‘rsatuvchi belgilar kabi turlarga bo‘linadi. Amalda yorug‘lik beruvchi, ovoz va rangli ogox qiluvchi qurilmalar, belgi anglatuvchi va turli ko‘rsatkichlar (bug‘ning harorati, bosimi, suyuqlik satxi va X.) qo‘llab kelinadi.

Belgi asosida ogox kiluvchi qurilmalar muayyan masofaga belgi berish uchun ishlatiladi. Chunonchi, belgi asosida ogox qilish tufayli kranchi bilan yuk bog‘lovchi bir-birini yaxshi tushunadi.

Davlat andozasi bo‘yicha to‘rt xil signal anglatuvchi qizil, sariq, yashil va ko‘k ranglar qo‘llanadi.

Qizil signal tusi taqiqlovchi belgilar, yozuv va rasmlarni anglatishda, yong‘in xavfsizligi belgilarida qo‘llanadi.

Sariq signal tusi ogoxlantiruvchi belgilarida, baxtsiz hodisalar yuz berishi xavfi mavjud bo‘lgan qurilish konstruksiyasi belgilarini ko‘rsatishda qo‘llanadi.

Yashil signal tusi buyuruvchi belgilarda qo‘llanadi.

Ko‘k signal tusi ko‘rsatuvchi belgilarda qo‘llanadi.

Elektr xavfsizligi

Elektrdan shikastlanish ishlab chiqarishda shikastlanishning boshqa turlari orasida xiyla kam foizni tashkil etadi, ammo og‘ir asorat va ayniqsa xalokat bilan yakunlanishi jixatidan yukori o‘rinlardan birini egallaydi. Elektrdan shikastlanishning aksar qismi (60-70%) kuchlanishi 1000V gacha bo‘lgan elektr uskunalarini ishlatishda yuz beradi. Bu shunday elektr uskunalarining keng tarqalganligi hamda ularni ishlatuvchi kishilarning malakasi nisbatan past ekanligidan kelib chiqadi.

Elektrdan shikastlanishning sabablari quyidagicha: tok utkazuvchi ixotalanmagan qismlarga tegib ketish; kuchlanish ostida bo‘lgan metallmas

qismlariga tegib ketish; masofada ortuvchi elektr toki yoyi ta'siridagi tokdan shikastlanish.

Kishi organizmi orqali O'tayotgan elektr toki unga termik elektrolitik va biologik ta'sir qiladi. Termik ta'sir To'qimalarning qizishi va xatto kuyishi, elektrolitik - organik suyuqliklarning, jumladan qonning buzilishi, biologik ta'sir esa organizmdagi bioelektrik jarayonlarning buzilishi, kuchli qo'zgalish hamda tirik to'kimalarning qo'zgalishi va paylarning tortishishida namoyon bo'ladi.

Organizmning elektr tokidan zararlanishi ikki xilga bo'linadi: elektrdan shikastlanish va tok urishi.

Elektrdan shikastlanish – to'qima va organlarning qisman zararlanishi, elektrdan kuyishlar, elektrik belgilar hamda terining elektrmetallashuvidan iboratdir. Elektrdan kuyishlar yuzaki teri qoplaming kuyishi bilan xarakterlanadigan hamda ichki badan qoplamasining chuqurda joylashgan to'kimalari zararlanishi bilan xarakterlanuvchi kuyishlar demakdir. Yuz berishidagi shart-sharoitiga qarab, ularni kontaktli, yoy tufayli hamda aralash kuyishlar, deyiladi.

Elektr belgilar xira kuyish hamda oqsariq tusdagi qadoksimon dog'lar bo'lib, terining elektr toki o'tayotgan narsaga tegib ketgan joylarida paydo bo'ladi va aksar xollarda og'riqsiz tarzda kechadi va vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketadi. Terining elektrmetallashuvi - teri yuzasiga elektr toki ta'sirida sachrab ketgan yoki bug'langan metall parchalari botib qolishdan iboratdir. Terining zararlangan joylari g'adir-budur bo'lib, tusi teriga tushgan metall qo'shilmalarining rangiga botiq bo'ladi. Ko'zga metall tushishi anchagina xavfli xolat hisoblanadi.

Elektrdan shikastlanishlarga, shuningdek tok o'tgan maxali beixtiyor ravishda paylarning qaqshab tortishuvi tufayli mexanik shikast yetishi (teri yirtilishi, qon va asab tomirlarining uzilishi, et uzilishi va cho'zilishi, suyak sinishi) hamda elektrooftalmiya - elektr yoyining ultrabinafsha nurlari ta'sirida ko'zning shikastlanishi ham mansub bo'ladi.

Tok urishi tirik to'kimalarning elektr toki ta'sirida kuchli qo'zgalishi va shuning ta'sirida paylarning qaqshab qisqarishidan iboratdir.

Elektr toki urishi, natijasiga qarab besh toifaga bo‘linadi:

- 1)xushni yo‘qotmasdan;
- 2)nafas olish va yurak urishi faoliyati buzilmagani xolda xushdan ketishi;
- 3)nafas olish va yurak urishi faoliyati buzilgani xolda xushdan ketish;
- 4)klinik o‘lim;
- 5)elektr karaxtligi.

Ish joyini tashkil qilish

Tehnologiya taraqqiyoti jadal o‘sib borayotgan, ishlab chiqarish jarayonlari takomillashayotgan sharoitlarda mehnat unumдорлиги oshirish uchun har bir ish joyini to‘g‘ri tashkil etishning ahamiyati g‘oyat katta.

Ish joyi texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasining xamma qoidalari va normalari talablariga javob berishi, uskunalar, moslamalar (stollar, javonlar, instrument, qutilar, tara va b.) joylashgirish uchun yetarlicha maydonga ega bo‘lishi, ko‘zni tolktirmaydigan darajada yoritilishi zarur bulganda ventilyasiyali bo‘lishi kerak.

Mehnat xavfsizligi ko‘p jixatdan xavfsizlik texnikasi talablarining bajarilishiga bog‘liq. Ishchi topshirik bilan oldindan tanishganidan va bevosita ish joyida usta (master)dan yo‘rknoma olganidan keyingina ish boshlash kerakligini bilishi kerak. Ish boshlashdan oldin o‘z ish joyini, instrument, moslamaning borligi va soz ishlayotgani, mexanizm, dastgoxlar, agregatlar va ximoya vositalarining xamma xarakatlanadigan yoki aylanadigan qismlaridagi to‘siklarining borligi va bus-butunligini tekshirib chiqish kerak. Ish joylarida materiallar va detallarni ma’lum joyga qo‘yish va ularni yuk ko‘taradigan mexanizmlar bilan transportirovka qilishni qulay sharoitlari bilan ta’minalash zarur.

Material qatorlari orasiga qistirmalar qo‘yilishi lozim.

Ish joylarida dastgoxlar va verstaklar yoniga yog‘ochdan panjaralar o‘rnatalishi kerak. Ish joyini ozoda va batartib saqlash, u erni tara, buyumlar, chiqindilar bilan to‘ldirib yubormaslik va vaqtida yig‘ishtirib turish lozim.

Ish joylari va ular o‘tiladigan yo‘laklar 1,3m va bundan ortiq balandlikda 2m masofada vaqtinchaliktusiklar bilan o‘rab qo‘yilishi kerak.

Xudud (territoriya)dagи xarakat xavfsizligi va yuk ko‘taradigan kranlar hamda mexanizmlarning ishlashi. Korxonalar xududida belgilab qo‘yilgan yulkalar va o‘tish yo‘llaridan foydalanish lozim.

Yuk ko‘taradigan mexanizmlar (kranlar, ekskavatorlar, ko‘targichlar va b.) yakinidan o‘tish taqiqilanadi. Osilib turgan va ko‘tarilgan yuk ostidan o‘tish yoki ostida turish ayniqsa xavflidir. Ishchi ogoxlantiruvchi yozuvlar, belgilar, svetoforlar, signalchilarning talablarini puxtalik bilan bajarishi kerak. Xalq xo‘jaligining xamma soxalarida yuk ortish-tushirish ishlarini tashkil qilishga doir xavfsizlikning umumiy talablari GOST 12.3.009 - "Yuk ortish-tushirish ishlari"da belgilab berilgan.

Yong‘in xavfiga qarshi umumiy talablar

Agar oson alangalanadigan yoki yonilg‘i suyuqliklar saqlashga tug‘ri kelsa, yong‘inga qarshi qoidalarning talablarini bajarish zarur. Saqlanadigan moddaning yo‘l qo‘yiladigan miqdori oson alangalanadigani uchun 5m³, yonilgi suykliklar uchun 29 m³ dan oshmasligi kerak. Suyukliklarni faqat yer osti yoki yarim yer osti omborlarda saqlashga ruxsat beriladi. Yer osti tipidagi omborlarni o‘t olmaydigan materiallardan qurishga ruxsat etiladi, biroq devorlarining tuproq katlamasi qalinligi kamida 0,2 m bo‘lishi kerak.

Yog‘och materiallar yong‘in chiqishi nuqtai nazaridan anchagina xavf-xatar tug‘diradi. Shuning uchun qurilish maydonchasida bu materiallar saqlanadigan omborlar qurilayotgan binolardan quyidagi: taxta materiallar uchun 30m va go‘la yog‘ochlar uchun 18m masofada joylashtirilishi kerak. Taxta materiallarni shtabellarda saqlash lozim. har bir shtabelning o‘lchovi uzunligi va eni bo‘yicha taxta yoki g‘ula uzunligidan oshmasligi kerak: shtabelning maksimal balandligi shtabel enining yarmidan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Shtabellarning ular qulab tushmaydigan qilib joylashtirish lozim. Shtabellar orasida har tomondan kamida 2 m oraliq qoldirish zarur. Taxta-yogoch materiallarni saqlashda omborni yonadigan chiqindilar: pustlok, payraxa, kurigan o‘tlardan muntazam tozalab turish ayniqsa muxim. Bu chikindilarni birdaniga tashib ketish yoki qurilayotgan ob’ektlar, vaqtinchalik imoratlar va inshoatlarning yog‘och materiallari chegarasidan kamida

50m masofada joylashgan maxsus ajratilgan maydonchaga yig‘ib qo‘yish va yoqib yuborish kerak. Yonadigan gaz-kislorod, atsetilenli balloonlar ham yong‘in chiqishi jixatidan xavfli hisoblanadi.

Ballonlar boshqa materiallardan alohida joyda va faqat ular uchun qurilgan binolarda yoki inshootlarda saqlanishi lozim. Saqlash usuli va joyi avvalo omborda bir vaqtning o‘zida turgan balloonlar miqdoriga bog‘lik.

2.3 «UZ DONYAN CO» korxonasida xavfsizlik sohasidagi maqsasd va vazifalari

- atrof muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilish, xavflarning maqbul darajasini pasaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash;
- ekologiya, sog’liqni saqlash va xavfsizlik sohasidagi amaldagi qonunchilik va boshqa talablarga rioya etilishini nazorat qilish tizimini joriy etish va integral boshqaruv tizimining ko’rsatkichlarini;
- favqulodda vaziyat xavfi va ularning tabiatga va insonga salbiy ta’sirini kamaytirish;
- tabiat va xom ashylardan oqilona foydalanish, atrof muhitga, shu jumladan, insonga minimal texnogen ta’sir ko’rsatishi, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, tabiiy resurslarning muayyan iste’molini va ishlab chiqarish birligiga sarflanadigan energiyani qisqartirish;
- turmush darajasini yaxshilash, ish sharoitlarini yaxshilash, ishchilarni dam olish va sog’lomlashtirish;
- xodimlarni shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari, sanitariya inshootlari va asbob-uskuna vositalari, tibbiy-profilaktik vositalar bilan ta’minalash;
- kasb kasalliklarining oldini olish;
- Mehnatni muhofaza qilishda mehnatkashlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minalash.

Korxonaning barcha xodimlari korporativ axloq me'yorlariga muvofiq ishlaydigan, "Uz-Dong Yang Co" MCHJ mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mujassamlashgan boshqaruva tizimining talablariga muvofiqligini ta'minlaydilar

Korxona rahbariyati korporativ boshqaruva tizimini takomillashtirish zarurligi, korxonaning barqaror ishlashini ta'minlashauchun iste'molchilar va manfaatdor tomonlarning hozirgi talablarini inobatga olgan holda, ISO 9001: 2008, ISO / TS 16949: 2009, ISO 14001: 2004 and OHSAS 18001: 2007 standartlariga muvofiq yagona boshqaruva tizimini yaratishga qaror qildi.

ISM- mujassamlashgan boshqaruva tizimi kompaniyamiz faoliyatining quyidagi yo'nalishlari bo'yicha aniqlanadi:

- sifat siyosati – iste'molchilarning talablariga va qonunchilik talablariga javob beradigan sifatli mahsulotlarni-ichki avtomobil qismlarini GM O'zbekiston uchun ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlash,
- atrof-muhitni boshqarish – korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yuzaga keladigan zararli ekologik ta'sirlarning oldini olish yoki kamaytirish orqali tabiatdagi ekologik muvozanatni ta'minlash;
- ish joyida sog'liqni boshqarish va havfsizlik – ishlab chiqarish faoliyatida xodimlarning hayoti va sog'lig'inining ustuvorligini e'tirof etish, jarohatlarning oldini olish va ishchilarning sog'lig'ini ta'minlash, rsiklarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ta'minlash.

Korxonaning ishlab chiqarishdagi asosiy maqsadlaridan biri bu ishlab chiqarishda mahsulotning sifatigina emas balki hodimlarning sogligi va salomatligi birinch navbatidagi majburiyatidir. Korxonada chiqayotgan mahsulotlar atrof-muhitga hech qanday zarar yetkazmaydi. Sifat jihatdan esa dunyo standartlarga javob bera oladi. Rahbariyatning asosiy majburiylari esa quydagilardan iborat:

- sifat menejmenti tizimiga asoslangan holda 2007 yildan boshlab sifat menedjmenti, ekologiya, salomatlik va xavfsizlikning yagona tizimini yaratish, va joriy etish;

- Mujassamlashgan boshqaruv tizimining ISO 9001: 2008, ISO / TS 16949: 2009, ISO 14001: 2004 and OHSAS 18001: 2007 xalqaro standartlari talablariga muvofiqligini va uning uzlusiz takomillashishini ta'minlash;
- sifat, ekologiya, salomatlik va xavfsizlik sohasidagi amaldagi milliy qonunchilik va xalqaro huquqlarga rioya qilish, shuningdek, «Uz-Dong Yang Co» MCHJ roziligi bilan boshqaruv tizimining boshqa talablariga javob berish;
- takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida, jarayon ma'lumotlarini va umuman korxonani muntazam tahlil qilishni kuzatish;
- aniq maqsadlarni belgilash, zarur resurslarni ajratish;
- atrof muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik masalalari bo'yicha xabardorlikni va mas'uliyatni oshirish maqsadida xodimlarni o'qitish va motivatsiyalashni ta'minlash, har bir xodimga korxonaning farovonligiga maksimal darajada hissa qo'shish imkonini beradi;
- uning muvofiqligi va korxona uchun maqbulligi siyosatini muntazam tahlil qilish, manfaatdor shaxslar uchun Siyosatning mavjudligini ta'minlash va kompaniyadagi barcha xodimlarni siyosat bilan tanishtirish

Xulosa

Men o'z amaliyat davrimda «Uz - Dong Yang Ko» qo'shma korxonasida faoloyat jarayoni bilan tanishib u yerdagi ish sharoyitlar bilan tanishdim va u yerdagi xodimlarga berilayotgan ish sharoyitini ko'rib juda ham xursand bo'ldim. Mehnat xavfsizligi ko'p jixatdan xavfsizlik texnikasi talablarining bajarilishiga bog'liq. Ishchi topshirik bilan oldindan tanishganidan va bevosita ish joyida usta (master)dan yo'riknoma olganidan keyingina ish boshlash kerakligini bilishi kerak. Ish boshlashdan oldin o'z ish joyini, instrument, moslamaning borligi va soz ishlayotgani, mexanizm, dastgoxlar, agregatlar va ximoya vositalarining xamma xarakatlanadigan yoki aylanadigan qismlaridagi to'siklarining borligi va busbutunligini tekshirib chiqish kerak.

3.1. Ishlab chiqarishda mikroiqlim ko'rsatkichlari

Inson organizmi havo haroratining juda katta o'zgarishga moslasha oladi. Chunki odam organizmida uzlusiz ravishda issiqlik paydo bo'ladi va u tashqariga ajralib chiqib turadi, buning natijasida issiqlikning paydo bo'lishi va sarf qilinishi orasidagi doimiy nisbat hamda harorat bir xil darajada saqlanib turadi. Bu fiziologik jarayon esa organizmning issiqlik almashuvi deyiladi. Odam organizmida uzlusiz paydo bo'ladigan issiqlik tashqariga uch xil yo'l bilan chiqadi: konveksiya, nur tarqatish va terlash. Normal mikroiqlimda (havo harorati 20S atrofida) konveksiya yo'li bilan 30% atrofida, nur tarqatish yo'li bilan 45% atrofida, terlash yo'li bilan esa 25% atrofda organizmdan issiqlik ajralib chiqadi.

Mikroiqlim ko`rsatkichlarining sanitar-gigienik standartlarda belgilangan me`yoriy miqdorlardan chetga chiqishi inson organizmining fiziologik funktsiyalariga hamda tananing harorat almashinuv reatsiyasiga salbiy ta`sir ko`rsatadi va baxtsiz hodisalarni kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Ma`lumki, inson organizmida ichki reaktsiyalar ta`sirida uzlusiz issiqlik ajralib chiqadi va uning miqdori ish turiga bog'liq holda sutkasiga 10500 Kj.dan 25000 Kj. gacha etadi. Sog`lom inson tanasining harorati doimiy 36-37 0C bo`ladi. Shu sababli tashqi muhit haroratining o`zgarishi natijasida organizmda oksidlanish jarayonning intensivligini ko`paytiruvchi yoki kamaytiruvchi termoregulyatsiya jarayoni (kimyoviy termoregulyatsiya) yuzaga keladi.

Shuningdek tanada issiqlik nurlanishi, konveksiya va terining yuza qismi orqali ter ajralib chiqishi (fizik termoregulyatsiya) orqali atrof-muhitga issiqlik uzatish jarayonlari amalga oshadi.

Atrof-muhitning me`yoriy haroratida (18-20 0C) inson tanasidan issiqlik nurlanishi orqali 44%, konveksiya tufayli 33%, ter ajralib chiqish orqali 23% issiqlik ajralib chiqadi. Muhit haroratining o`zgarishi bu mutanosiblikni o`zgarishiga sabab bo`ladi. Masalan, haroratning +30 0C.ga etishi natijasida ter ajralib chiqishi orqali issiqlik uzatish 50% gacha etadi.

Inson tanasidagi termogulyatsiya jarayoniga havoning namligi ham katta

ta`sir ko`rsatadi. Yuqori namlik va yuqori haroratda tanada ter orqali issiqlik ajralib chiqish jarayoni sekinlashadi va bu tananing qizib ketishiga sabab bo`ladi.

Organizmda me`yoriy issiqlik almashinuv jarayoniga havoning harakatlanish tezligi ham ta`sir etadi, ya`ni havo oqimining past tezligida tananing issiqlik uzatishi kuchayadi, yuqori tezlikdagi havo harorati mavjud muhitda tananing issiqlik uzatishi kamayadi. Shuningdek, yuqori haroratda ishlovchi asbob-uskunalar ishlataladigan texnologik jarayonlarda ham issiqlik nurlanishi yuzaga keladi.

Yuqori miqdordagi issiqlik nurlanish energiyasi tananing qizib ketishiga olib keladi va issiqlik almashinuvi jarayonini buzilishiga sabab bo`ladi. Ilmiy manbalardan ma`lumki, havo harorati +30 0C dan yuqori bo`lgan muhitda jismoniy ish bajarish jarayonida inson tanasidan soatiga 1-1,5 litr ter ajralib chiqadi va u bilan birga 5-10 g. miqdorida har xil tuzlar va S va V vitaminlari eritma holda chiqib ketadi. Bunda albatta, tananing salqin haroratlari suyuqliklarga bo`lgan ehtiyoji oshadi. Agar bu talab o`z vaqtida qondirilmasa, mushaklardan chiqayotgan issiqlik quvvatining ma`lum miqdori tanada yig`ilib qoladi, u borgan sari ko`payib, natijada harorat almashinuv jarayoni buziladi, kishi lohaslik sezal boshlaydi, chunki bunday hollarda tomirlarda qon quyuqlashadi va yurakning qon haydash qobiliyati ancha susayadi.

Agar tanada shu yo`l bilan issiqlik quvvati yana ham ko`payib boraversa harorat almashinuv jarayoni buzilishining ikkinchi davri - patologik gipertermiya, tomir tortilishi va issiq urish kasalligi boshlanadi.

Ish joylarida, ayniqsa salqin va sovuq fasllarda havoning tezligi oshib ketsa tana harorati bilan havo harorati o`rtasidagi tafovut keskin orta boradi va shu sababdan organizm tez soviy boshlaydi, natijada shamollah bilan bog`liq har xil xastaliklar kelib chiqadi.

Tananing sovishi mahalliy yoki umumiy bo`lishi mumkin. Mahalliy sovushda tananing alohida yoki bir necha a`zosigina soviydi. Masalan, oyoqning etik ichda uzoq muddat nam holatda, havoning harorati 00 dan - 80C bo`lgan sharoitda bo`lishi, shaqsiz oyoq nerv tolalarining shamollahiga olib keladi.

Shuningdek bunday sharoitlarda qulqoq, burun, ko`z va tish bilan bog`langan nerv tolalari tez xastalanadi.

Havoning namligi ham odamning fiziologik holati va mehnat faoliyatiga bevosita ta`sir qiladi. Bizning iqlimimiz quruq va keskin kontinentaldir. Shu sababli biz uchun eng qulay havoning namligi 40-60 foizni tashkil qiladi. Havoning namligi ko`tarilgan sari tanadan chiqayotgan issiqlikning havoga singib ketishi qiyinlashadi, chunki bir qism issiqlik tanadan chiqolmay yig`ilib qolaveradi va shuning xisobiga tananing harorati ko`tarila boshlaydi. Agar aksincha namlik 30 foizdan pasayib ketsa, tanadan ajralib chiqayotgan terning bug`lanishi tezlashib ketadi va natijada odamning terisi qurishib – yorila boshlaydi, ayniqsa nafas olish yo`llari qurishadi, chanqoqlik orta boradi va holsizlanish seziladi. Ikkala hol ham odamning yashash va mehnat qilishi uchun o`ta noqulay bo`lib, ba`zan turli xil baxtsiz hodisalarga sabab bo`ladi.

Ishlab chiqarish muhitida meteriologiya sharoitini ifodalovchi omillar-havoning harorati, nisbiy namligi, barometrik bosim va ish joylaridagi havo harakatining tezligi kishining ish qobiliyatiga, mehnat unumdorligiga va inson organizmi jarayonlariga katta ta`sir ko`satadi. Inson tanasidagi doimiy harorot-organizm termoregulyatsiyasi fiziologik va kimyoviy jarayonlar asosida ushlab turiladi va tashqi muhit bilan organizm orasidagi issiqlik almashinushi to`liq ta'minlanadi/ haroratning 15-20 0C, nisbiy namlikning 35-70% bo`lishi moddalar almashinushi va issiqlik ajralish jarayonlarini amalda o`zgartirmaydi. 200C darajada haroratda organizmda issiqlak ajralishi va bug`lanish amalga oshadi. Inson organizmidan bug`lanish hisobiga ter ajralib chiqishi, uni issiq urishidan caqlaydi. Nisbiy namlik 80-85% dan ortib ketganda, organizmdan ajralayotgan terning bug`lanishi sekinlashib fiziologik termoregulyatsiyaning buzilishi sodir bo`ladi.Organizmning tashqi muhit bilan issiqlak almashunuvi meteriologik sharoitdan tashqari, bajarilayotgan ishning turi va ishchining fiziologik holatiga ham bog`liqdir. 300 C darajadan yuqori bo`lgan haroratda ishchi bir smenada 10-12 litrdan ortiq ter ajratishi va 10 gramm o`noga 30-40 gramm tuz yo`qotish mumkin. Bunday miqdordagi tuz yo`qotish organizmning suvni saqlab turish

qobilyatini susaytiradi va issiq urishi sodir bo‘lishi mumkin. Ish joylaridagi havo haroratining tezlanishi hisobiga havo haroratining pasayib ketishi tanani haddan tashqari sovishiga va buning natijasida shamollash kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Shuning uchun ishlab chiqarish zonalarida “Sanoat korxonalarni loyihalash sanitariya me’yori” ga asosan bajarilayotgan ishning turi va yilning fasllarini hisobga olib, doimiy va o‘zgarubchi ish joylari uchun meteriologiya sharoitlari darajalari belgilab berilgan Ish toifalari quyidagicha belgilanadi:

- a) Yengil jismoniy ishlar (1-toifa) o’tirib, tik turib yoki yurib bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo’riqish yoki yuklarni ko’tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.s) ni tashkil etadi. Bunga tikuvchilik, aniq asbob-sozlik va shu kabi korxonalar kiradi.
- b) O’rta og’irlikdagi ishlarga (2 toifa) soatiga 150-250 kkal (172-293 J.s) energiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga, og’ir bulmagan (10kg.gacha) yuklarni tashish bilan bog’liq ishlar (yigiruv-to’qish ishlari, mehaniq-yig’uv, payvandlash ishlari) sho’lar jumlasidandir.
- v) Og’ir jismoniy ishlar (3 toifa) muntazam jismoniy zo’riqish, (10 kg dan ortiq) muttasil yukni bir joydan ikkinchi joyga ko’chirish va ko’tarish bilan bog’liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250kkal (293 J.s) dan yuqori buladi. Bunday ishlarga temirchilik, quyuv korxonalarini kiradi.

Havo harorati yuqori bo’lganda yoki havoda infraqizil nurlar bo’lganida, organizmning normal issiqlik ajralib chiqish jarayoni buziladi. Agar havo harorati teng yoki undan ortiq bo’lsa, organizm o’zidan konveksiya yo’li bilan issiqlik chiqara olmaydi. Bordi-yu buning ustiga havoga qizigan jismlardan infraqizil nurlar ajralib chiqib turgan bo’lsa, organizm o’zidan nurlanish yo’li bilan issiqlik chiqara olmaydi. Bunday hollarda organizmning issiqlik almashuvi juda qiyinlashadi, chunki organizmdagi ortiqcha issiqlik faqat terlash yo’li bilan tashqariga chiqadi. Havo namligi yuqori bo’lgan sharoitda esa organizmdan terlash yo’li bilan chiqadigan issiqlik qiyinlashadi va organizmdan ortiqcha issiqlik konveksiya va nur tarqatish yo’li orqali chiqadi.

Noqulay iqlim sharoitida organizmning issiqlik almashuvi jarayoni buzilishi (o'zgarishi) natijasida, organizmdagi hayotiy zarur a'qzolarning normal ishlashi qiyinlashadi va fiziologik funksiyalari o'zgaradi.

Yuqori harorat yurak va qon tomir sistemasiga juda katta ta'sir ko'rsat adi. Yuqori harorat ta'siri natijasida qon tomir urushi tezlashadi va organizm harorati ko'tarilishiga sababchi bo'ladi. Bu esa organizm issiqlik almashuvining buzilishidan darak beradi.

Yuqori harorat ta'siri natijasida qon bosimi pasayadi, qonning kimyoviy tarkibi o'zgaradi. Issiq havo ta'sirida organizmdan suyuqliklar bilan bir qatorda juda ko'plab gazlar ham ajralib chiqadi. Organizmning suv tuzi balansi buzilishi natijasida kishilar tomir tortish kasalligiga uchrashlari mumkin.

Yuqori harorat ovqatlanish a'zolariga va vitamin almashuviga ham yomon ta'sir qiladi. Kishilar juda issiq havoli muhitda uzoq muddat ishlari natijasida ular organizmi qizib ketishi mumkin, ya'ni issiq urushi mumkin.

Butun organizmning ortiqcha qizib ketishidan paydo bo'lgan issiq urushidan oftob urushini farq qilish kerak. Oftob urushi issiqlik nurlarining to'g'ridan-to'g'ri boshga ta'sir qilishdan va bosh miyaning 40-42 gradusgacha isishida paydo bo'ladi. Bunda tana harorati normal holda qolishi yoki salgina ko'tarilishi mumkin. Ba'zida oftob-issiq urishining aralash formalari uchraydi.

Sovuq havoning organizmga ta'siri juda yaxshi o'rganilmagan, shu narsa ma'lumki sovuq havoning ta'siri natijasida organizmlarning har xil bakteriyalarga bo'lgan qarshiligi susayadi. Natijada kishilar gripp, nafas olish yo'llarini shamollashi, o'pka shamollashi, nervni va bosh miyani shamollashi kasali bilan kasallananadilar. Shuning uchun ham bu kasalliklar shamollanish kasalligi deb ataladi.

Havoning namligi va harakatchanligi ham kishi organizmiga sezilarli ta'sir qiladi va organizmning issiqlik almashuvining o'zgarishida ifodalanadi.

Ishlab chiqarish xonalari, ish joylaridagi havo harorati, isbiy namligi va harakat tezligining me'yorlari

Yil fasllari	Ish toifalari	Havo harorati, °C	Nisbiy namligi, %	Havo harakati tezligi, m/c
Sovuq	Yengil – I	20–30	60–30	0,2
	O'rtacha og'irlikdagi – I a	18–20	60–40	0,2
	O'rtacha og'irlikdagi – I b	17–19	60–40	0,3
	Og'ir – III	16–18	60–40	0,3
Iliq	Yengil – I	20–25	60–40	0,2
	O'rtacha og'irlikdagi – I a	21–23	60–40	0,3
	O'rtacha og'irlikdagi – I b	20–22	60–40	0,4
	Og'ir – III	18–21	60–40	0,5
Issiq	Yengil – I	20–30	60–30	0,3
	O'rtacha og'irlikdagi – I a	20–30	60–30	0,4–0,5
	O'rtacha og'irlikdagi – I b	20–30	60–30	0,5–0,7
	Og'ir – III	20–30	60–30	0,5–1,0

Yilning sovuq va illiq davrida ishlab chiqarish xonalari harorati, nisbiy namligi va havo harakati tezligining yo'l qo'yiladigan me'yorlari

Ish toifalari	Havo harorati, °C	Nisbiy namligi, %	Havo harakati tezligi, m/c	Tashqarida-gi havo harorati, °C
Yengil – I	19–25	75	0,2	15–30
O'rtacha og'irlikdagi – II a	17–25	75	0,2	15–30
O'rtacha og'irlikdagi – II b	13–25	75	0,4	15–30
Og'ir – III	13–25	75	0,5	15–30

Yilning issiq davridagi ishlab chiqarish xonalari harorati,nisbiy namligi va havo harakati tezligining yo'l qo'yiladigan me'yorlari

Ish toifalarini	Havo harorati, °C	Nisbiy namligi, %	Havo harakati tezligi, m/s
Yengil—I	eng issiq oyda soat 13 da tashqi havo	28°C da 55 27°C da 60 26°C da 65 25°C da 70	0,2—0,5 3,0—0,7 0,3—0,7 0,3—0,7
O'rtacha og'irlikdagi—I a	o'rtacha haroratdan yuqori bo'lmasligi	24°C da 75 dan ortiq bo'lmasligi kerak	0,3—0,7
O'rtacha og'irlikdagi—II b	biroq 28°C dan oshmasligi kerak	26°C da 65 25°C da 70	
Og'ir—III	eng issiq oyda soat 13 da tashqi havo haroratidan 5°C dan yuqori bo'lmasligi, biroq 26°C dan oshmasligi kerak	24°C da va bundan past bo'lganda 75 dan oprik bo'lmasligi kerak	0,5—1,0 0,5—1,0 0,5—1,0

Iqtisodiy qism

Bitiruv ishining texnik –iqtisodiy asosnomasining maqsadi – taklif etilayotgan tadbirlarning iqtisodiy va tashkiliy jihatdan assoslanganligi ta'minlash, iqtisodiy samaradorligini baholash va shu asosda qaror qabul qilish uchun zamin yaratishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalardagi islohotlar mazmuni va maqsadi – insonlar turmush farovonligini oshirish, ularga munosib xayot darajasini ta`minlash, mehnat va dam olish huquqlarini to`la ta`minlashga qaratilgan. Bunda barcha korxona va tashkilotlar ishchi-xodimlar mehnatiga qulay sharoitlar yaratib, uning xavfsizligini ta`minlashlari zarur.

Mehnatni muxofaza qilish ishlarining samaradorligini baholashda quyidagi ko`rsatkichlardan foydalaniladi:

- iqtisodiy samaradorlik – investorlarning bevosita moliyaviy manfaatlaridan tashqari xarajatlar va natijalarni hisobga oladi;
- ijtimoiy samaradorlik- ishlovchilarining mehnat sharoitlarini yaxshilanishi, xavfsizligi ortishi, kasallanish kamayishida ifodalanadi;
- ekologik samaradorlik- atrof-muhit sharoitlari yaxshilanishida ifodalanadi.

Mehnatni muxofaza qilish va sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlarini joriy qilish ko`p xollarda ma'lum birlamchi xarajatlar – investitsiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Shu sababli, bunday ishlanmalarning samaradorligini aniqlashda xarajatlar samaradorligini hisoblashning umumiyligi qoidalaridan foydalaniladi.

Tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflanadigan bir martalik kapital xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- binolar qurish (rekonstruksiya qilish);
- tegishli uskuna sotib olish (ijaraga olish);

- changlanishni va ifloslanishni kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish bilan bog'liq ITTKI (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari);
- me'yoriy xujjatlar ishlab chiqish bilan bog'liq ITI (ilmiy tadqiqot ishlari);
- tegishli ishlar (sinov, sertifikatsiya, tekshiruv, kalibrovka, o'lchov jixozlarini ta'mirlash)ni bajarish huquqini beradigan laboratoriyalarni akkreditatsiyalash va / yoki/ litsenziyalash;
- jihozlarni sinovdan o'tkazish va sertifikatsiyalash;
- xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, attestatsiyalash.

Joriy xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- ekologik tadbirlar uchun xom ashyo va materiallar, yarimfabrikatlarni sotib olish xarajatlari;
- bino va uskunalarni (filtrlar) ushlab turish xarajatlari (amortizatsiya) va /yoki/ ijara to'lovleri;
- xodimlar mehnatiga haq to`lash, transport va xizmat safarlari xarajatlari.

Ishlab chiqarishda mexnat sharoitlarini yaxshilashning natijaviyligini baholash tashkilotning rivojlanish imkoniyatlari va yo'llarini aniqlashga yordam beradi, ishlab chiqarishni takomillashtirish, diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari orasidagi munosabatlar to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi.

Korxonalarda ekologik sharoitlarni yaxshilash hisobiga olinadigan samara quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S = F_e / X + Kq * En$$

Bu erda S – rejalashtirilayotgan ekologik xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi; so`m

F_e - ekologik tadbirlardan kutilayotgan yillik iqtisodiy samara, so`m

X- tabiatni muxofaza qilish tadbirlarining yillik joriy xarajatlari,so`m

Kq - tabiatni muxofaza qilish tadbirlariga kapital qo`yilmalar ,so`m

En- tabiatni muxofaza qilish tadbirlariga kapital qo`yilmalar samaradorligining normativ koeffitsienti (0,08)

Ekologik tadbirlarning iqtisodiy samarasiga yana atrof-muhitni ifloslantirishdan zararni kamayishi, mahsulot ishlab chiqarish xajmining ortishi kabi ko`rsatkichlar kiradi

Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida korxonada mahsulot sifati ortadigan bo`lsa va buning natijasida mahsulotning sotish bahosi ortsu, yillik iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi:

$$S = (B_1 - B_2) \times Mx$$

Bu erda S – reja bo`yicha yillik samaradorlik;

B_1 va B_2 – tadbir joriy qilinguncha va qilingandan keyingi mahsulot birligi bahosi;

Mx – mahsulot ishlab chiqarishning yillik miqdori

Agarda taklif etilayotgan tadbirlar natijasida korxonada brak va yo`qotishlar miqdori kamayadigan bo`lsa, bundan olinadigan yillik iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi:

$$S = (BR_1 - BR_2) \times Mx \times Tn$$

100

Bu yerda S – reja bo`yicha yillik samaradorlik;

BR_1 va BR_2 – tadbir joriy qilinguncha va qilingandan keyingi brak mahsulotlar va yo`qotishlar ulushi %

Mx – tadbirlar amalga oshirilgandan keyin mahsulot ishlab chiqarishning yillik miqdori

Tn – mahsulot birligi tannarhi

Mehnat sharoitlarini yaxshilash hisobiga mehnat unumdorligi ortishidan kutiladigan iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi:

$$S = (MR_1 - MR_0) \times Nx$$

Bu yerda MR_1 va MR_0 -tadbir joriy qilingandan keyingi va avvalgi bir ishlovchining mehnat unumdorligi, ming so`m

Nx -ro`yxatdagi xodimlar soni

Mehnat sharoitlarini yaxshilash hisobiga baxtsiz xodisalar kamayishi ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalar tufayli yo`qotishlarning kamayishi va bu tadbirlarga sarflangan xarajatlar o`rtasidagi farq sifatida aniqlanadi

$$S = (Yo`_1 - Yo`_0) - Kx$$

Bu yerda $Yo`_1$ va $Yo`_0$ -tadbir joriy qilingandan keyingi va avvalgi baxtsiz xodisalar tufayli yo`qotishlar, ming so`m

Kx – tadbirlarni amalga oshirishga xarajatlar, ming so`m

Bitiruv ishi doirasida ko`rib chiqilgan ishlab chiqarishda mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha taklif etilayotgan tadbirlarning samaradorligiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnat sharoitlarini yaxshilashning yillik iqtisodiy samarasи
- 2) yangi tizimni joriy qilishga sarflangan xarajatlar samaradorligi

Bitiruv malakaviy ishning iqtisodiy qismida mehnat sharoitlarini yaxshilashni ta'minlashda ishtirok etuvchi xodimlarning ish haqi, asosiy fondlarning amortizatsiya ajratmasi va materiallar sarfi hisoblandi va mazkur hisob-kitoblar quyidagi jadvallar ko'rinishida bajariladi:

Muxandis-texnik va ishchi xodimlarning yillik ish xaqi fondining hisobi

*O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblarining yangilangan klassifikatorini tasdiqlash to‘g‘risida" 164-soni VMQ. Toshkent sh., 2015 yil 19 iyun. 1-ilova. (O‘zbekiston Respublikasi qonun h

**O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2009 yil 21 iyuldagи 206-sonli qarori.

Yillik amortizatsiya ajratmasining hisobi

3-jadval

Yillik materiallar sarfining hisobi

No	Materiallar nomi	O'lchov birligi	Yillik material sarfi	Material birligining narxi, ming so'm	Yillik material sarfi, ming so'm
1	Maxsus kiyim	dona	500	210	105000
2	Zaxira material va qismlar	Yillik amortizatsiya miqdoriga nisbatan 3,5 %ni xisoblaymiz			4343,01
	Jami				109343,01
3	Elektr energiya xarajatlar	Ja'mi xarajatlarga nisbatan 30 %ni hisoblaymiz			32802,9
	Hammasi				142145,9

Bitiruv malakaviy ish mavzusiga doir xarajatlarining smetasi.

№	Harajatlar nomi	Xarajatlar miqdori, ming so‘m
1.	Muhandis-texnik va ishchi xodimlarning yillik ish xaqi fondinngi hisobi	142587,6
2.	Yillik ijtimoiy sug‘urta ajratmasi (25 %)***	35646,9
3.	Yillik amortizatsiya ajratmasi	124086,1
4.	Yillik materiallar sarfi	109343,01
5.	Yillik elektr energiya sarfi (yillik materiallar sarfining 30 %i hisobida)	32802,9
6.	Ta’mirlash va joriy xarajatlar (yillik amortizatsiya ajratmasiga nisbatan 10 % hisoblaymiz)	12408,6
	Jami:	456875,11

Agar biz o`rgangan «Uz Dong Yang Co» qo`shma korxonasida bir yilda ish joylarida mehnat xavfsizligiga rioya qilmaslik oqibatida yo'qotishlar miqdori -5%, ya'ni yiliga 150000 ming so'm (2018 yil ma'lumotlari) bo'lsa, shovqin izolyatsiyasi, chiqindilarni tozalash, vaqtida uskunalarni moylash va ko`rikdan o'tkazish, mehnat xavfsizligini oshirish orqali mehnat sharoitlarini yaxshilash natijasida ushbu yo'qotishlarni o'rtacha 2,5% ga kamaytirishga erishilsa, bu 75000 ming so'm iqtisodiy samara keltiradi.

$$S = 150000 - (150000 * 0,025 / 0,05)$$

$$S = 150000 - 75000 = 75000 \text{ ming so'm}$$

Bu bevosita iqtisodiy samara bo'lib, bundan tashqari korxonada mehnat sharoitlarini yaxshilash va xavfsizligini oshirish katta ijtimoiy samara ham keltiradi. Bunda kasallanishni kamaytirish mehnat faoliyati natijaviyligiga va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda korxona raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa va tavsiyalar.

O'zbekistonda mexnat muxofazasi – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy xujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mexnat jarayonidagi xavfsizligi, sixat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena va davolash oldini olish tadbirdari xamda vositalari tizimidan iborat.

Korxonaning barcha xodimlari korporativ axloq me'yorlariga muvofiq ishlaydigan, “Uz-Dong Yang Ko” MCHJ mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mujassamlashgan boshqaruv tizimiga ega korxona sifatida ish olib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam “Uz-Dong Yang Co” korxonasida havfli va zararli ishlab chiqarish turlari bo'yicha talablar va normalar davlat standartlari, havfli va zararli xossalariiga ega bo'lgan moddalar bilan ishslashda havfsizlik talablarini rioya qilinadi.

Ish sharoiti zararli bo'lgan joylarda xodimlarga belgilangan me'yorlarga ko'ra sut yoki uning o'rnini qoplay oladigan boshqa maxsulotlar tekin berilishi.

Og'ir ishlarda va mehnat sharoiti zararli bo'lgan yohud nosoz sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlar ishga qabul qilishdan oldin va ish davomida vaqt-vaqt bilan zimmalaridagi ishni bajarishga yaroqlilagini aniqlab va kasalliklari rivojlanishining oldini olish maqsadida tibbiy ko'rikdan o'tkazib turiladi. Bu esa korxonada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz xodisalarni oldini olishga xizmat qiladi.

Mexnat sharoiti asosan, odamning sog'lig'iga, ishslash qobiliyatiga uning ishga munosabati va rezultatiga bog'lik. Agar yomon mexnat sharoiti bo'lsa, bu ishlab chiqarishga ta'sir qiladi, bu esa shikastlanishni va kasbiy kasallikni kelib chiqishiga olib keladi. Ishlovchilarning sog'lig'i, ishslash qobiliyati, mexnatga munosabati ko'p jixatdan ishslash sharoitiga bog'lik bo'ladi. Shuning uchun korxonalarda ishchilarga mexnat sharoitini yaxshilash ishlab chiqarishda samaradorlika erishish va baxtsiz xodisalarni kamaytirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.R.Yuldashev, SH.G.Jabborova.Hayot faoliyati xavfsizligi.Toshkent-2011. 97-119 бетлар
2. Mehnatni muhofaza qilish. O lmasov A. Qudratov., A T.: “Mehnat” .2001 y.14-49 б.
3. Mehnatni muhofaza qilish" H. Rahimov, A. Azamov, T.Tursunov., T:.“O'zbekiston”. 2003 y.23-46 б.
4. «Ишлаб чиқаришдаги баҳтсиз ходисаларни ва ходимлар саломатлигининг бошқа заарланишини текшириш ва хисобга олиш» түг‘рисида Низом . ЎзР Вазирлар Махкамасининг 1997 йил 6 июндаги 286-сонли карори билан тасдиқланган.
5. ГОСТ 1.26-77. Стандартлар ва техника шароитлари хавфсизлиги талабларини ишлаб чиқиш ва келишишни тартиблари.
6. ГОСТ 12.0.002-80- «Ишлаб чиқариш шикастланишларини жароҳатланиш даражасига қараб тасимланиш схемаси» .
7. «Ишлаб чиқаришда баҳтсиз һодисаларни текшириш Низоми». Касаба Уюшмаси Марказий кенгаши 2006 йил 11 ноябрда тасдиқлаган.
8. Йўлдошев У Усмонов У Qудратов “Мехнатни муҳофаза қилиш”. Т. “Мехнат”-2001 -45-61 б.
9. Фойипов X.Э “Мехнат муҳофазаси” Т “Мехнат” -2002, 38-54 б.
10. Норхўжаев А. К Юнусов М. Ю Фавқулотда вазиятлар ва муҳофаза тадбирлари . Тошкент. “ Университет” 2001, 106-129 б.